

## **Adabiy ertaklarni o‘rganish usullari**

BMIning umumiy tavsifi.....	2
I BOB. Adabiy ertaklarning o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni va ularni o‘qitishning bugungi kundagi ahvoli.....	9
1.1 O‘zbek adabiyotida folg’klar va yozma adabiyot munosabatlari va adabiy ertaklar.....	9
1.2. Umumta’lim maktablarida adabiy ertaklarni o‘qitish va uning bugungi kundagi ahvoli.....	15
1.3.Ertak darslarini tashkil etishdagi murakkabliklar.....	19
II BOB. Adabiy ertaklarni tahlil qilish orqali adabiy ta’limda samaradorlikka erishish yo‘llari.....	24
2.1. Adabiy ertaklarni tahlil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari.....	24
2.2. Tahlil jarayonida savol va topshiriqlar bilan ishlash.....	31
2.3“ Uch og‘a-ini botirlar” ertagini o‘rganish.....	48
III BOB. BMI ning amaliyotga tatbiqi.....	54
3.1. Adabiy ertak darslariga zamonaviy yondashuv va noan’anaviy darslarni tashkil etish.....	57
3.2. Ochiq darslarning tashkil etilishi.....	60
XULOSA .....	68
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI .....	70

## **BMIning umumiy tavsifi.**

**Mavzuning dolzarbligi.** Ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi, global dunyoda raqobatning ortishi sharoitida har bir davlat va jamiyatning bu jarayonda raqobatbardoshligi yoshlarning intellektual rivoji hamda ularning iste`dodi va qobiliyatlarini to`liq amalga oshirishga e`tibor berishga bog`liq bo`ladi. Shuning uchun bu masala har doim davlatlarning uzoq muddatli rivojlanishini ta`minlashga qaratilgan barcha strategiyalarda aks ettirilgan. O`zbekiston Res`ublikasining 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishlari bo`yicha Harakatlar strategiyasi ham bu borada istisno bo`lmadi.

Mustaqillik yillarida O`zbekiston Res`ublikasida uzluksiz ta`lim tizimini takomillashtirish, uni jahon ta`limi standartlari darajasiga ko`tarish, shaxsni har tomonlama barkamol qilib voyaga yetkazish, shuningdek, malakali `edagog kadrlarni tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo`nalishlaridan biri etib belgilandi.

Ayni `aytda jamiyatda ro`y berayotgan ijtimoiy o`zgarishlarni o`z ko`zi bilan ko`rib, ularni ongli his etadigan, davrning global masalalari xususida mustaqil fikrlovchi ijtimoiy-ma`naviy faol avlod shakllanmoqda.

Birinchi `rezidentimiz I.A.Karimov ta`kidlaganidek, «...ta`limdan asosiy maqsad bolalarga ilgarigidek bilim berish emas, bilim olishga o`rgatishdir. Bunda o`quvchilar `assiv tinglovchi bo`lib qolmay, balki bilim olis jarayonining faol ishtirokchisiga aylanishi kerak... Agar bolalar erkin fikrlashga o`rganmasa, berilgan ta`lim samarasi `assiv bo`lishi muqarrar»<sup>1</sup>.

SHu kunlarda hukumatimiz tomonidan ushbu masala yuzasidan qabul qilingan Davlat dasturi ana shu ezgu maqsadga erishish yo`lida, jami davlat va nodavlat manbalarini hisobga olgan holda mavjud barcha resurs va imkoniyatlarimizni safarbar etishni nazarda tutadi.

O`zbek pedagogikasida adabiyot o`qitishning bosh maqsadini p.f.d., prof. Q.Yo`ldoshev ilk bor batafsil va to`g`ri belgilab bergan edi: “ ...Barkamol shaxsni shakllantirish marrasi milliy maktablarimizda adabiyot o`quv predmetini o`rganish

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: O`zbekiston.1997. -156 b.

uchun bosh maqsad bo'lishi mumkin ekanligini qadimiy qadriyatlarimiz ham, ma'naviy an'analarimiz ham, uzoq tarixga ega pedagogik amaliyotimiz ham, kishilarimiz ruhiy olamiga singib ketgan badiiy adabiyotimiz ham taqozo etadi"<sup>2</sup>.

Barkamol shaxsni shakllantirish nafaqat adabiy ta'lim, balki ta'limning umumiy o'rta bosqichida barcha fanlarni o'qitishdan ko'zlangan bosh maqsaddir.

“Barkamol avlod orzusi” kitobida mamlakat rahbarining fikrlari, o'y-mulohazalari bilan tanishgan odam barkamol shaxs tarbiyasiga davlat miqyosida nechog'liq jiddiy ahamiyat berilayotganligiga amin bo'ladi"<sup>3</sup>. Ta'lim tizimidagi har bir predmetning bu borada muayyan imkoniyatlari bor. Lekin ularning har biri shaxs komilligining qaysidir bir sifati, jihatining shakllanishida alohida mavqega, imkoniyatga ega. Adabiyot esa o'quvchi shaxsiyatida ruhiy poklik, ma'naviy yuksaklik, estetik did kabi sifatlarini tarbiyalashda yetakchi omil bo'lib xizmat qiladi. Ma'naviyat insonda yaxlit holda namoyon bo'ladigan fenomendir. O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, “Insonni, uning ma'naviy olamini kashf etadigan Yana bir qudratli vosita borki, u ham bo'lsa, so'z san'ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotning insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarni esa inson ruhining muhandislari deb ta'riflanishi bejiz emas, albatta.”<sup>4</sup>.

Professor Q.Yo'ldoshev tomonidan aniqlangan maqsad badiiy adabiyotning barcha shakli, davri va ta'limning bosqichlariga taalluqlidir. Xususan, biz tadqiq etayotganimiz adabiy ertaklarni o'qitish uchun ham.

**Mavzuning dolzarbligi.** Mustaqillikdan so'ng nazariy mohiyati tubdan qayta ko'rib chiqilgan adabiyotshunoslik va adabiyot o'qitish metodikasi fanlarining ilmiy-pedagogik, o'quv-metodik asoslariga yangicha yondashuvni davrning o'zi taqozo etmoqda.

“Asr boshidan buyon ko'rsatib berish”, “fosh etish”, “aniqlab berish” bilan shug'ullanib kelgan milliy adabiyotshunoslik asr adog'iga yetganda tadqiq va talqinga mayl ko'rsatmoqda. Endilikda o'zbek adabiyoti tarixi yangilanayotgan badiiy tafakkur

---

<sup>2</sup> Y'ldoshev K. Yonik s'yz. – T.: Yangi asr avlodi, 2006, 62-bet.

<sup>3</sup> Karimov I.A. Barkamol avlod – Y'zbekiston tarakkiyotining poydevori. Birinchi Prezident I.A.Karimovning Y'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida s'zlagan nutki. 1997 yil, 29 avgust. 18-bet.

<sup>4</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008, 39-bet

talablari asosida qayta idrok etilmoqda, bu davrda yaratilgan asarlarning asl mohiyatini ochishga harakat qilinmoqda. Adabiyotshunoslik uzoq vaqt mobaynida badiiy asarlarni, asosan, ijtimoiy nuqtai nazardan tekshirishga moslashgan bo'lsa, endi mavjud qoliplarni tark etaroq, badiiy matnga estetik talablar asosida yondashishga, har qanday xulosani matndan keltirib chiqarishga urinmoqda. Natijada, ko'plab bitiklarning asl badiiy qiymati, bir qator adiblarning millat estetik tafakkuri taraqqiyotidagi tarixiy o'rni xolisona belgilanayotir<sup>5</sup>.

Adabiyotshunoslikdagi mazkur yangilanishlarni adabiyot o'qitish jarayoniga tadbiq etish XX asr 90-yillarining birinchi yarmidan boshlab yaratilayotgan dastur, darslik va qo'llanmalarda aks etib, bugungi kungacha davom etib kelmoqda. Bu, o'z navbatida, respublikamiz maktablaridagi adabiyot o'qitish ishiga ijobiy turtki berdi. SHuningdek, Qozoqboy Yo'ldoshev, Boqijon To'xliiev, Safo Matjon, Marg'uba Mirqosimova, Qunduzxon Husanboevalarning doktorlik ishlari asnosida olib borgan tadqiqotlari, yaratgan monografiya va qo'llanmalari hamda ushbu olimlar rahbarligidagi ilmiy izlanishlar soha rivojiga sezilarli hissa qo'shmoqda.

Bosib o'tilgan tarixiy taraqqiyotimiz davomida xalqimiz ma'rifat, ma'naviyat va madaniyat sohalarida katta yutuqlarga erishdi.

O'zining boy tarixiga, betakror an'alariga ega bo'lgan o'zbek adabiyoti bugungi kunda jahonga tanilgan katta badiiy xazinalardan biri bo'lib qoldi. Bunda barcha olimlar qatori milliy adabiy an'alarining, jumladan, boy tarixga ega bo'lgan xalq og'zaki ijodining roli va o'rni buyukdir.

CHindan ham yozma badiiy adabiyotning xalq og'zaki ijodiga munosabati adabiyot nazariyasining eng muhim masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbek xalqining boy og'zaki ijodi qadim zamonlarga borib taqaladi. "Turkiy xalqlar o'z yozma adabiyotlarini vujudga keltirmasdan burun mazmuni boy, shakli rang-barang bo'lgan og'zaki adabiyot – qo'shiqlar, ertaklar, dostonlar yaratgan edilar"<sup>6</sup>, – degan edi Oybek.

---

<sup>5</sup> . Y'ldoshev K. Yonik s'yz. – T.: Yangi asr avlodi, 2006, 123-bet

<sup>6</sup> Oybek. Mukammal asarlar t'ylami. 20 tomlik.

Bu hol, shubhasiz, Ahmad Yassaviy, Sayfi Saroyi, Durbek, Lutfiy, Alisher Navoiy, Maxmur, Gulxaniy, Muqimiy, Furqat kabi buyuk allomalar ijodiga folg'klor asarlari ta'sirini yuzaga keltirdi. Ayniqsa, XX asr o'zbek adabiyotida folg'klorga qiziqish, undan ijodiy o'rganish yanada jonlandi.

Bu hol, adabiyotda yangi janrlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Ya'ni, xalq ertaklari, afsona va rivoyatlari asosida, ularning ta'sirida yaratilgan adabiy ertaklar: ertak-she'rlar, ertak-dostonlar shular jumlasidandir.

Hozirda amalda bo'lgan adabiyot fanidan Davlat ta'lim standartlarida adabiy ertaklarni o'qitish-o'rgatish tavsiya etilgan. Mazkur adabiy ertaklarni o'rganishda erishilgan yutuqlarni umumlashtirib, ushbu mavzularning o'qitilishini takomillashtirish orqali adabiy ta'lim samaradorligiga erishish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

**Mavzuning o'rganilish darajasi.** Keyingi yillarda mavzuga aloqador tadqiqot ishlari, bir qator ilmiy-metodik maqolalar yuzaga keldi. Xususan, Marg'uba Mirqosimovaning "O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari", Qozoqboy Yo'ldoshevning "Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari", Boqijon To'xliyevning "Adabiyot o'qitish metodikasi", V.Qodirovning "Mumtoz adabiyotni o'qitish muammolari va yechimlari" kabi kitoblar yaratildi. Biroq bu tadqiqot va qo'llanmalarda biz qo'ygan masalalar bevosita yoritilmagan hamda tadqiq etilmagan. Bu holat ham ishimizning dolzarbligini yana bir karra belgilaydi.

**Tadqiqotning maqsadi.** Adabiyot va folg'klor masalalari bilan bog'liq katta avlod yozuvchilarining ijodiy tajribalari hamda hozirgi adabiy jarayonda yaratilayotgan adabiy ertaklarni tahlil etish, umumta'lim maktablarining 5-6 sinf Adabiyot darslarida o'qitilishi ko'zda tutilgan adabiy ertak darslarining mazmunini belgilash va shu orqali o'quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirish, yanada takomillashtirishning ilmiy-uslubiy tizimiga doir tavsiyalar berish, mavzu yuzasidan olib borilgan tajriba-sinov ishlari asosida metodik tavsiyalar tayyorlashdan iborat bo'lsa, quyidagi masalalarni hal qilish **tadqiqotning vazifalari** sifatida belgilandi:

- folg'klorning xalq tomonidan ishlanib, shakllanib, takomillashib kelgan ma'lum badiiy-estetik tizim sifatida yozma adabiyotning rivojida tutgan o'rni va ahamiyatini ko'rsatish;
- xalq ertaklari, afsona va rivoyatlaridagi syujet yo'nalishi, fikr-g'oyalarning yozuvchilar tomonidan qayta ishlanib, sayqal berilib asar to'qimalariga singdirilishini o'rganish va tadqiq etish;
- adabiy ertaklarni Davlat ta'lim standartlarida o'qitilishini tahlil etish, bu boradagi fikr-mulohaza va takliflarni bayon etish;
- umumta'lim maktablarining 5-6-sinflarida o'rgatilishi ko'zda tutilgan adabiy ertaklarni o'qitilishining hozirgi ahvolini o'rganish, bu boradagi yutuqlarni umumlashtirib, mavjud kamchiliklar ustida ish olib borish;
- tadqiqot mavzusiga doir ilmiy-metodik maqolalar, o'quv qo'llanmalarni o'rganish, bu boradagi metodist olimlarning ishlarini tahlil etish;
- o'rganilgan ilmiy-nazariy pedagogik manbalar, bugungi kun metodika ilmining eng so'nggi yutuqlari asosida ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish;
- kuzatishlar asosida chiqarilgan xulosalarni tajriba maydonlarida sinovdan o'tkazish.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Dissertatsiya ishi adabiy ertaklarni tahlil qilish asoslarini o'rganishga qaratilgan birinchi keng qamrovli tadqiqotdir. SHu nuqtai nazardan tadqiqotning ilmiy yangiligi adabiy ertaklarni tahlil qilishning metodik asoslarini tadqiq etish, adabiy ertaklarni o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalar asosida dars ishlanmalarini yaratish, shu orqali mavzuning o'qitilishini takomillashtirish va samaradorligini ta'minlashga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqish bilan xarakterlanadi.

**Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari.** Umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitish, xususan, adabiy ertaklarni tahlil qilishga mustaqillik tufayli shakllangan ilmiy-tadqiqot metodologiyasi asosida yondashildi. So'z san'ati va folg'klar munosabatlarini chuqur o'rgangan H.Zarif, M.Afzalov, M.Alaviya, T.Mirzayev, B.Sarimsoov, O.Safarov, I.Yormatov, M.Jo'rayev, U.Jumanazarov, Sh.Turdimov, K.Imomov, A.Musaqulov kabi folg'klorshunos olimlar, shuningdek adabiy ta'lim samaradorligini oshirish, uning bosh maqsadi bo'lgan barkamol inson va

uning ma'naviy olamini shakllantirish yo'lida ilmiy izlanishlar olib borayotgan A.Zunnunov, Q. Yo'ldoshev, B.To'xliev, S. Matjon, M. Mirqosimova, U.Dolimov, R.Niyozmetova kabi metodist olimlarning ilmiy ishlarida erishilgan yutuqlar hisobga olindi.

Mavzuning o'ziga xos jihatlarini nazarda tutgan holda, kuzatish, eksperiment, so'rovnoma, qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning manbalari.** Tadqiqotda yuqorida tilga olingan muammolarni yoritishda, asosan, birlamchi manbalar – o'zbek va jahon adabiyotida adabiy ertak (ertak-she'rlar, ertak-dostonlar, ertak-qissalar)lar yozgan ijodkorlarning asarlaridan keng istifoda etildi. Bu jarayonda faqat adabiy ta'limning davlat ta'lim standartlaridan o'rin olgan adabiy ertaklarga murojaat qilindi. Zero, o'zbek adabiyotida bunday asarlar juda ko'plab topiladi, ularning hammasini tahlilga tortish ishning maqsadi va hajmiga mos kelmaydi.

SHuningdek, tadqiqot ishiga asosiy manba sifatida Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, Respublika ilmiy-pedagogika kutubxonasi, Nizomiy nomidagi TDpU Asosiy kutubxonalarida saqlanayotgan kitoblar, darslik va dasturlar, ilmiy-tadqiqot ishlari, matbuot materiallariga murojaat qilindi.

**Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati** shundaki, mazkur tadqiqot ishi yaxlit holda adabiy ta'lim samaradorligini ta'minlashga va metodika fani rivojiga xizmat qiladi. Ishimizning xulosalari va materiallaridan adabiy ta'limda ertak darslarni o'qitishda, mavzuga aloqador dars ishlanmalari, o'quv qo'llanmalar, metodik tavsiyalar tayyorlashda, alohida ilmiy-metodik izlanishlar olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbiqi quyidagi hollarda ko'rinadi:

1. Umumta'lim maktablarining 5-6 sinflarida adabiy ertaklarni o'qitish bo'yicha mashg'ulotlarni olib borishda;
2. BMI natijalarini amaliyotga tatbiq etish jarayonida Toshkent shahar SHayxontoxur tumani 34- umumta'lim maktablarida olib borilgan darslar asos bo'lib xizmat qildi.

**Tadqiqotning tuzilishi.** BMI kirish, olti faslni o'z ichiga olgan ikki asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tarkib topgan. BMI asosiy matnining umumiy hajmi 64 sahifadan iborat.

## **I BOB. Adabiy ertaklarning o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni va ularni o‘qitishning bugungi kundagi ahvoli**

### **1.1. O‘zbek adabiyotida folg’klar va yozma adabiyot munosabatlari va adabiy ertaklarning paydo bo‘lishi**

Folg’klar o‘zining muhim tomonlari bilan ijodkor uchun har jihatdan e’tiborli va qimmatli ekanini qadimiy va hozirgi zamon adabiyoti tajribalari ko‘rsatib berdi.

O‘zbek yozuvchilari folg’klar asarlarini chuqur o‘rganib borganlari va undan ijodiy foydalanganlari sari folg’klar va yozma adabiyotning o‘zaro munosabati tobora takomillashib o‘z samarasini bera boshladi.

Xalq og‘zaki ijodi yozuvchi va shoirlarning g‘oyaviy-badiiy jihatdan o‘shida, uslub xilma-xilligini yaratishda katta ijodiy maktab bo‘lib qoldi. Yozma adabiyotda o‘z ifodasini topgan folg’klar syujetlari va motivlari yozuvchi mahorati tufayli qayta sayqal topib, original asar sifatida yozma adabiyot mulkiga aylandi.

So‘z san’atining bu ikki shakli o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir tarixi juda qadim zamonlarga, ya’ni yozma adabiyotning yuzaga kelish davrlariga borib taqaladi. Qadim zamonlardan har bir davr ijodkorlari ertak mavzularidan foydalanib keladilar. Ko‘hna SHarqda Abulqosim Firdavsiy, Rudakiy, Nizomiy, Jomiy, Navoiy bedil, Fuzuliy, Berdaq, Gulxaniy, Muqimiy kabi buyuk siymolar o‘z ijodxonalarida xalq og‘zaki ijodidan oziqlanib, ajoyib samaralarga erishdilar, o‘lmas obrazlar yaratishda folg’klar xazinasidan qanday ta’lim olish, nimalarni o‘rganishning ibratli tajribalarini berdilar.

XX asr yangi o‘zbek adabiyotining chinakam xalqchilligi va yuksak badiiyati uchun kurashgan, uning mustahkam poydevorini qurishda jonbozlik ko‘rsatgan Abdulla Qodiriy, CHo‘lpon, Fitrat, H.H.Niyoziy xalq og‘zaki ijodi materiallarini qayta ishlashda ibrat bo‘larli o‘ziga xos maktab yaratishdi. G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Oybek, Mirtemir, Maqsud SHayxzoda, Sulton Jo‘ra singari o‘zbek yozuvchilari bu maktab an’analari o‘ziga xos yo‘lda izchil rivojlantirdilar. Hozirgi adabiy jarayonda ijod qilayotgan yozuvchi va shoirlarimiz ham ba an’analarni davom ettirishmoqda.



Soʻz sanʼati bilan xalq ogʻzaki ijodining oʻzaro taʼsiri va munosabati xususida soʻz borganda, sanʼatkorning folgʻklor asarlariga koʻr-koʻrona ergashmasligi, ularga taqlid qilmay, oʻz ijodiy niyati, uslubi, qarashi jihatidan yondashishi koʻzda tutiladi. Bevosita folgʻklor syujetlari asosida yaratilgan adabiy ertaklar (ertak-dostonlar, ertak-sheʼrlar) va xalq ijodi poetikasiga suyanib yaratilgan folgʻklor motividagi asarlar haqida fikr bildirilsa, yuqorida taʼkidlangan asarlarda, xalq ijodidagi oʻzaro yaqin va ohangdosh boʻlgan syujetlarning tahliliga alohida oʻrin beriladi. Agar Hamid Olimjonning “Oygul bilan Baxtiyor” ertak-dostonida, asosan, “Malikai Husnobod” ertagi syujetiga asoslangan va boshqa yaqin xalqlarning shu motivdagi ertaklariga suyangan boʻlsa, “Semurgʻ” ertak-dostonida shoir konkret bir xalqning ertagini asos qilib olmaydi, balki unda aql bovar qilmaydigan qahramonliklar haqida hikoya qiluvchi “Kenja botir” ertagi, yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytaruvchi Semurgʻ haqidagi SHarq xalqlari ertaklari va boshqa folgʻklor asarlari, chunonchi, “Zevarxon” dostonining syujet yoʻnalishidan foydalanadi. Masalan, parizodning shartiga binoan yovuz devni yengish yoʻlidagi Bunyodning sarguzashtlari beixtiyor Kenja botirning sarguzashtlarini eslatadi. Agar Kenja botirning mushkullarini oson qilgan uchar ot boʻlsa, Bunyodning butun sinovli hayoti davomida Semurgʻ qush hamkor va madadkor boʻladi. parizod qoʻygan shartlar ertak va dostonlardagi, masalan, “Alpomish” dostonidagi Oybarchin shartlarini eslatadi. Lekin shoir, folgʻklor asarlaridan farqli oʻlaroq, shoh oilasida tarbiya topgan parizodni oʻz vaʼdasida turmaydigan, mardlik va vafoning qadriga yetmaydigan takabbur shoh qizi sifatida tasvirlaydi. SHoir folgʻklor asarlaridagi shart qoʻyish pryomidan uning salbiy xususiyatlarini ochish maqsadida foydalanadi. Aslini olganda, parizod tomonidan qoʻyilgan shartlar asar syujetini harakatga keltiruvchi muhim vosita boʻlib xizmat qiladi. Natijada voqealar birin-ketin bogʻlanib ketadi. Sinov shartlari esa yozuvchining qoʻlida voqea rivojining kaliti boʻlib xizmat qiladi.

SHoirilar ertak-dostonlarni yaratishda xalq ertaklari mazmunini sheʼriy yoʻl bilan qayta hikoya qilish yoʻlidangina borganlari yoʻq. Ular oʻz ertaklaridagi badiiyatni yuksaltirishda, fikrlarini dalillashda xalq ogʻzaki ijodi namunalaridan eng zarur voqea va syujetlarni, tasvirlash usullarini saralab oldi va ulardan mohirlik bilan foydalandi.

Ular folg'klor asarlaridagi eng ko'p tasvir usullarining yozuvchi badiiy fantaziyasini boyitishi mumkinligini o'z ijodlari misolida yaqqol ko'rsatishdi.

SHuni ham ta'kidlash zarurki, har bir yozuvchining folg'klordan oziqlanish printsipturlicha va o'ziga xosdir. Agar Hamid Olimjon adabiy ertak (ertak-doston) larida folg'klor asarlarining shakli, obrazlari, mubolag'ani tasvirlash usullari, obrazlar talqinini saqlashga moyillik sezilsa, Oybek dostonlarida folg'klor namunalarini o'z ijodiy laboratoriyasida shunday qayta ishlaydiki, natijada asarda folg'klor materiallarining mazmuni va ruhigina saqlanib qoladi ("O'ch", "Baxtigul va Sog'indiq" dostonlari).

Folg'klor motivlari asosida, uning ta'sirida yaratilgan epik asarlar orasida ertak-dostonlar keng o'rin egallaydi. Agar Zafar Diyor boshqird xalq ertaklari syujeti asosida "Burgut" she'r-ertagini yaratgan bo'lsa, o'zining tarbiyaviy mavzudagi bir ertak-dostonini "Yangi ertak" deb ataydi. Bularda shoir voqeani hikoya qilish, fikrni ifodalashda xalq ertaklari shakli va tasvir usulini qo'llaydi. Bu o'rinda tojik xalq ertagi asosidagi "Zangori gilam", "Qaldirg'och", "Jannat" nomli yangi ertaklarni (shoirning o'zi alohida ta'kidlaganidek, bular chindan ham Yangi mazmundagi ertaklardir) yaratgan Sulton Jo'raning izlanishlari ham xarakterlidir. Bularda shoir ertaklardagi tasvir uslubi va poetik vositalardan unumli foydalanadi. Masalan, u "Qaldirg'och" ertak-dostonida tasvirni ertaklardagiday boshlab, o'quvchini bevosita voqea tafsiliga olib kiradi.:

SHu qushlar orasida,  
Atlasning qorasiday,  
Har qanoti qush kabi,  
Otilganda tosh kabi –  
Bir qaldirg'och bor edi  
To'shchasi chipor edi.

SHoir o'zining "Zangori gilam" adabiy ertagida folg'klor motivida original epik asar yaratishning yorqin namunasini ko'rsatdi. Ertak ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismda xalq o'rtasida keng tarqalgan shu nomli ertak syujetidan keng foydalanilgan. Asar voqeasi xalq ertaklaridagidek:

Bor ekanda, yo'q ekan,

Och ekanda, to‘q ekan, –

zaylida boshlanadi. SHoir xalq ertaklari bilan qorishib ketgan oddiy syujet zaminida xalqimizning asrlar bo‘yi orzu qilgan ezgu niyatlari amalga oshganini kishilarning sevinch va shodlik kayfiyatlarida ifodalaydi.

Ma‘lumki, ko‘p asrlik o‘zbek adabiyoti tarixida ko‘plab ijodkorlar xalq ertak va dostonlari bilan bir qatorda, afsona va rivoyatlarga ham murojaat qilib kelishgan. Birgina so‘z mulkining sultoni Alisher Navoiy ijodining o‘ziyiq bu fikrimizga misol bo‘la oladi.

Yozma adabiyotning turli janrlarida maydonga kelgan asarlarga asos bo‘lgan manbalardan biri Aleksandr Makedonskiy haqidagi afsonalardir. Uning haqida G‘arb va SHarq mamlakatlarida juda ko‘p tarixiy va badiiy asarlar bitilgan. Aleksandr Makedonskiy obrazi uni bo‘rttirib izohlovchi, ilohiylashtiruvchi uydirma va to‘qima ta‘riflar orqali keng tarqalgan. Bu xil hangomalar esa turli afsona va rivoyatlarning yuzaga kelishiga turtki bergan. Bu tarixiy manba va afsona-rivoyatlar jahon xalqlarining og‘zaki va yozma ijodida yaratilgan badiiy asarlarga asos va turtki bo‘lgan. SHu jumladan, shoh Iskandar mavzui SHarq klassiklarining “Xamsa”larida ham o‘z tasvirini topgan.

SHunday qilib, xalq ijodi va tarixiy manbalar asosida yaratilgan Iskandar haqidagi badiiy asarlar har bir yozuvchining o‘z ideali, dunyoqarashi bilan izohlanadi. Mumtoz adabiyotimiz vakillari Iskandarga bag‘ishlangan dostonlarida o‘tmish voqealari orqali o‘z zamonining dolzarb muammolarini aks ettirishga muvaffaq bo‘ldilar.

Folg‘klor syujetlaridan yana biri shoxli Iskandar haqidagi ertak-afsona bo‘lib, u G‘arbda ham, SHarqda ham turli millat vakillari o‘rtasida keng tarqalgan.

Ertak mazmunicha, Iskandarning boshida shoxi bor emish, u buni sir tutadi. SHuning uchun sochini olgan har bir sartaroshni qatl etadi. Bora-bora sartaroshlar soni kamayib, so‘nggisi kelganda, shoh sirni fosh etmaslik sharti bilan uni omon qoldiradi. Qat‘iy so‘z bergan usta bu sirni hech ichiga sig‘dira olmay, quduqqa aytadi. Davrlar o‘tib, u yerlar qamishzorga aylanadi. Bu qamish-an nay yasab chalgan cho‘pon sirdan ogoh bo‘ladi. SHu tarzda sir oshkor bo‘ladi.

SHunday qilib, bu hodisa yozma adabiyot bilan xalq og‘zaki ijodida turlicha talqin qilinadi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida “shoxli Iskandar” deb yuritiluvchi bu ertakning

turli variantlari bor. Bularning ayrimlari yozib olinib, nashr etilgan. Bu ertak syujeti yozma adabiyotda ham tarqalgan. Maqsud SHayxzodaning “Iskandar Zulqarnayn” ertak-dostoni shular jumlasidandir. Ertak-dostonda afsona va uning asosida yaratilgan ertaklardagi voqealar birmuncha jonlantirilib, obrazli tasvirlar, aforistik naqlar bilan boyitiladi. SHoir Iskandarga xos boʻlgan johillik, bosqinchilikni dostonning boshidayoq qayd etadi:

Bor ekanu, yo‘q ekan,  
Kunchiqarning chegida,  
Yetti tog‘ning tegida  
Bir podshoh bor ekan,  
Ismi Iskandar ekan.  
SHohdan ekan nasabi  
Qizib ketsa g‘azabi  
Mijozi ajdar ekan  
O‘zi bu yerlik emas  
Tuqqan yurti Rum ekan  
Fath etishda shum ekan.<sup>1</sup> (34)

Iskandar boshida shoxi borligini qattiq sir tutadi. O‘zi tanho xilvat hujrada sartaroshga soch oldirib, so‘ng uni sirli ravishda qatl ettiradi. Qanchadan-qancha begunoh sartaroshlar qatl etilib, sartaroshlar urug‘i kamayib ketadi. Sarbozlar tutib keltirgan so‘nggi sartaroshni shoh o‘ldirmaslikka va‘da qilib, unga shart qo‘yadi:

Men xudoman, sen banda,  
Indama, tinch tur zinhor.  
O‘lguncha sir senga yor,  
To bo‘lmayin sharmanda.  
Bajarsang bu tilakni,  
Senga in‘om pulu mol,  
Yo‘qsa tutmoq ko‘p mahol –  
El og‘ziga elakni.

Bir kuni sartaroshning toqati toq bo‘lib, xilvat joydagi bir quduq yoniga keladi va boshini suqib:

– Voydod, dunyolar shohi,

Iskandarning bor shoxi, –

deydi dilidagi dardini yozib, yengil tortadi. Oradan ko‘p davr o‘tadi. Quduqni tuproq bosib, u yerda qamishzorlar paydo bo‘ladi. SHu yerda tirikchilik qilayotgan cho‘pon qamishdan birini olib nay yasaydi. Lekin undan:

– Voydod, dunyolar shohi,

Iskandarning bor shoxi, –

degan ovozdan bo‘lak narsa eshitilmaydi. SHu tarzda bu gap har yoqqa tarqaladi.

Bugungi kun adabiyotida, badiiy tasvirda falsafiylik, ijodkorlar insonning o‘zligini anglash, o‘z ko‘ngil olamiga yaqinlashish jarayoni bor murakkabligi, ruhiy qalqishlari ila tasvirlashda bahs, o‘y, xayol, ichki monolog shakllari keng o‘rin egallayotgan va bu masalalarda jiddiy izlanishlar olib borilayotgan hozirgi davrda afsona va rivoyatlarning yozma adabiyotdagi roli ayniqsa, ortib bormoqda. Yozuvchi afsona va rivoyatlardagi falsafiy fikrlarni to‘la saqlaydi, ba‘zan esa, o‘z fikr-o‘ylari bilan to‘ldiradi, undan ijodiy fantaziyasini boyitadigan, xayol ufqlariga turtki beradigan juda ko‘p muammolarga javob oladiayni chog‘da uni bugungi voqelik bilan bog‘laydi. SHu tarzda mifologik mazmun, uning Inson va hayot muammolari bilan hamohang tomonlari zahirida tashkil topgan voqealar badiiy asar ichiga kirib keladi.

## **1.2. Umumta‘lim maktablarida adabiy ertaklarni o‘qitish va uning bugungi kundagi ahvoli**

Bugungi kunda adabiy ta‘lim oldiga o‘quvchi yoshlarning milliy-ma‘naviy qadriyatlarni puxta o‘zlashtirishlari, ularning badiiy estetik didlarini shakllantirish va rivojlantirish, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini o‘stirish, har tomonlama yetuk shaxsning aqliy va ruhiy kamolotiga erishish, ongu tafakkurini o‘stirish, mustaqil fikr kishisini tarbiyalab voyaga yetkazish kabi muhim vazifalar qo‘yilgan. Mazkur vazifalarni ado etishda adabiyot Fani umumta‘lim tizimidagi boshqa o‘quv fanlari orasida salmoqli o‘rinni egallaydi. Adabiy ta‘limning bosh maqsadini ham sog‘lom, ma‘naviyatli shaxsni tarbiyalash tashkil etadi. Bu maqsad va vazifalarni bajarishda o‘zbek adabiyoti namunalari qatorida adabiy ertaklarning ham imkoniyatlari mavjud.

Adabiyot fanidan umumiy oʻrta taʼlim maktablarining Davlat taʼlim standartlarida adabiy ertaklarni oʻqitish-oʻrgatish tavsiya etilgan. Bunda oʻquvchilarning yoshi, qiziqishlari, dunyoqarashlari doirasi inobatga olinib, adabiy ertaklar 5-6-sinflarda oʻrganilishi koʻzda tutilgan. Umuman olganda, farzandlarimiz oilada, maktabgacha taʼlim muassasalarida ham ertaklar va adabiy ertaklarning rang-barang namunalari bilan tanishadilar. Anna shu tanishuvlar jarayonida ularning umumiy dunyoqarashlari shakllana boradi, shu bilan birga mazkur asarlar orqali dunyoni tushunish, olam va odamni idrok etish kabi xislatlar tarkib topadi, badiiy-estetik didlari, poetik tafakkurlari oʻsib boradi.

SHunday ekan, hozirda adabiy ertaklarni oʻqitish qay ahvolda? Bu janrni oʻqitishdagi murakkabliklar nimalardan iborat? Bu kabi savollarga javob topish va oldimizga qoʻyilgan maqsadlardan kelib chiqib olib borilgan tajriba-sinov ishlari jarayonida birqator salbiy holatlarga duch keldik. Toshkent shahar xalq taʼlimi boshqarmasiga qarashli bir qator maktablarda oʻtkazilgan tajriba-sinov jarayonida malakali adabiyot oʻqituvchilari bilan suhbatlar olib borildi, ularning adabiy ertak darslari kuzatildi, oʻquvchilarning anketa savollariga javoblari oʻqitishning bugungi ahvolini oydinlashtirib berdi. Mazkur jarayonda oʻquvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat etildi:

1. Ertaklar va adabiy ertaklar, bu ikki ertak turlari oʻrtasida farq bormi?
2. Farqi boʻlsa, bu farqlarni sanab bering yoki boʻlmasa nima uchun?
3. Siz Adabiyot darsligidan koʻproq adabiy ertaklar joy olishini istaysizmi?
4. Nima uchun xohlaysiz yoki nima uchun xohlamaysiz?
5. Adabiyot darsligidagi adabiy ertak haqida berilgan nazariy maʼlumot bu janr haqida yetarlicha bilim beradimi?
6. Bu darslarda sahnalashtirilgan dars tarafdorimisiz?
7. Adabiy ertaklar yozgan mualliflarni sanab bering.
8. Sizda koʻproq qaysi adabiy ertak qahramonlari yoqadi? Nima uchun?
9. Tengdoshlaringiz orasida eng mashhur adabiy ertak qahramoni qaysi biri?
10. Oxirgi marta kutubxonadan olgan ertak kitoblarining nomini yozing.

O‘quvchilar javoblarining tahlili adabiy ertak darslarining samaradorligi qoniqarli emas, degan xulosaga kelishimizga sabab bo‘ldi. Zero:

- aksariyat o‘quvchilar bu janr haqida ma‘lumotga ega emaslar;
- xalq ertaklari va adabiy ertaklar orasidagi farqni ajrata olishmaydi. O‘quvchilar bu ikki ertak turi o‘rtasida farq borligini e‘tirof etishsa-da, bu farqlarni aytib bera olishmadi. Demak, adabiy ertak haqidagi nazariy ma‘lumotlarni o‘qitishga ham e‘tiborni kuchaytirish lozim;
- aksariyat o‘quvchilar ertak darslarini sahnalashtirilgan ijro darslari tarzida olib borish tarafdorlari ekanliklarini bildirishgan. Zero, sahnalashtirilgan roli o‘yinlar ta‘lim berish bilan birga, o‘quvchilarning ijodiy faoliyati, ularning o‘zaro muloqot va nutq madaniyatini rivojlantiradi, mantiqiy fikrlash hamda bilimlardan xulosa chiqarishga o‘rgatadi;
- adabiyot darsligidan o‘rin olgan adabiy ertaklardan yanada ko‘proq adabiy ertaklar joy olishini hammalari xohlashganlarini kuzatdik. Buni shu bilan izohlash mumkinki, bu yoshdagi bolalar kichkinaligidan ertak eshitib o‘rganishgan, hamon jonajon ertaklaridan ayrilishni istashmaydi. Ularning yoshi, qiziqishlari ham boshqa janrlarga qaraganda, adabiy ertaklarga kuchli ekanligi ayni haqiqatdir.

Bugungi kunning asosiy talabi ta‘limda samaradorlikni ta‘minlash ekan, bu kabi muammoli holatlarning yechimini izlash lozim. Bunda eng avvalo, Fan o‘qituvchilaridan yanada fidoyilik, jonkuyarlik talab etiladi. SHu bilan birga quyidagi tavsiyalar ham bu muammolar yechimida ijobiy rol o‘ynaydi, deyish mumkin:

a) darslikdagi nazariy ma‘lumotlarni o‘rganish chog‘ida uni shunchaki o‘qib, yodlatish samarali usul emas. O‘qituvchi turli metodlardan foydalanib, o‘quvchining o‘zi xulosa chiqarishiga erishishi lozim;

b) agar darslikdagi nazariy ma‘lumot yetarli emas deb hisoblansa, uni turli manbalar asosida to‘ldirish mumkin. Umumta‘lim maktablarining 5-sinf o‘quvchilari uchun yaratilgan Adabiyot darsligida adabiy ertaklar haqida ham ma‘lumot uchrasada, ular yaxlit holda berilmagan. Darslikdan o‘rin olgan xalq ertaklaridan so‘ng berilgan nazariy ma‘lumot - “Ertak haqida tushuncha”da adabiy ertaklar “yozma ertaklar” nomi bilan atalgan va unda asosan jahon va o‘zbek adabiyotida bu

janr rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan adib va yozuvchilar nomlari sanab o‘tilgan, xolos:

... Ertaklarning yaratilishiga ko‘ra yana bir turi – yozma ertaklar ham mavjudki, u jahon adabiyoti, xususan, o‘zbek yozma adabiyotining katta qismini tashkil etadi. Keyingi ikki-uch yuz yillikda frantsuz ertakchisi SHarl perro (1628-1703), nemis ertaknavislari Ernest Teodor Amadey Gofman (1776-1822), aka-ua Yakov Grim (1785-1863) va Vilgelg‘m Karl Grimm (1786-1859) lar Vilgelg‘m Gauf (1802-1877), daniyalik Xans Kristian Andersen (1805-1875), angilyalik Oskar Uayld (1854-1900), rus ertakchilari A.S.pushkin (1799-1837) ijodining roppa-rosa 10 yilini faqat bolalar uchun hikmatli hikoyalar va ertaklar yaratishga bag‘ishlagan. L.N.Tolstoy (1828-1910), K.D.Ushinskiy (1824-1870) yozma ertakchilikni rivojlantirishga katta hissa qo‘shdilar. O‘zbek yozma ertakchiligi ham katta tarixga ega. Jadid bobolarimiz Behbudiy, M.Abdurishidxonov, Fitrat, Avloniy, Hamza, Siddiqiy – Ajziy o‘zlari tuzgan maktab darsliklari uchun ko‘plab ibratli ertaklar yaratdilar. O‘tgan asr o‘rtalarida Hamid Olimjonning “Oygul bilan Baxtiyor”, “Semurg”, Sulton Jo‘raning “Zangori gilam”, SH.Sa’dullaning “Ayyor chumchuq”, “No‘xat polvon”, “Laqma it” she’riy ertaklari, “Yoriltosh”, “Afsona yaratgan qiz” ertak-pg’esalari, “Kachal polvon” ertak-qissasi mashhur bo‘ldi. Adiblarimizning ertakchilik sohasidagi an’analarini keyinchalik X.To‘xtaboev, A.Obidjon, T.Adashboev, O‘.Imomberdiev kabi ertaknavis mualliflarimiz davom ettirdilar.<sup>7</sup>

SHu bilan birga, darslikda ertak-doston haqida batafsil ma’lumot berilgan. Lekin shuni aytish mumkinki, bizningcha, Xans Kristian Andersenning “Bulbul” ertagidan so‘ng adabiy ertaklarning barcha shakllari – ertak-she’rlar, ertak- dostonlar, ertak- qissalar haqida batafsil va yaxlit nazariy ma’lumot berilishi o‘rinlidir. CHunki darslikning bu qismiga kelib, H.Olimjonning “Oygul bilan Baxtiyor”, M.SHayxzodaning “Iskandar Zulqarnayn” ertak- dostonlari, SHukrulloning “Umr haqida ertak” ertak-she’ri, Xans Kristian Andersenning yuqoridagi ertagi o‘rganilib bo‘linadi. Bunda ungacha o‘quvchilar o‘zlari o‘rganayotgan asar janri

---

<sup>7</sup> Axmedov S., Kosimov B., K‘ychkorov R., Rizaev SH. Adabiyot. 5-sinf uchun darslik. – T.: “SHark”, 2007, 86-bet.



haqida ma'lumotga ega bo'lishmaydimi?-kabi e'tirozlar bo'lishi mumkin. Lekin har bir asar tahlili uning janrida kelib chiqiladi-ku. professor M.Mirqosimovning fikrlari ham so'zimizni dalillaydi: "Sinfda o'qib o'rganish uchun mo'ljallangan o'zbek xalq ertaklari, hikoya va qissalardan tortib, "Ulug'bek xazinasi", "Diyonat", "Yulduzli tunlar" kabi yirik asarlar tahliliga uyg'un holda tayanch sinflarda o'zlashtirilgan ... asarlarga xos janr xususiyatlari haqida shakllantirilgan bilimlarni yanada chuqurlashtirish zarurligi seziladi".<sup>8</sup>

Demak, nazariy ma'lumotlarni o'rganishda adabiy ertaklar tahlili jarayonida janr xususiyatlari haqidagi berilgan bilimlarni "Bulbul" ertagidan so'ng taqdim etiladigan umumiy ma'lumotlar to'ldiribgina qolmay, malakalar hosil qilishi mumkin bo'ladi.

v) mazkur muammolarni hal etishda yana bir omil borki, u ham bo'lsa adabiyot o'qituvchi va uning ijodkorlik fazilatidir. Ya'ni o'quvchi yangilikka intiluvchan bo'lar ekan, u yangicha metodlarni o'ylab topishi va shu orqali ta'limda samaradorlikka erishish mumkin.

Ko'rib o'tganimizdek, bu borada yechimini kutayotgan muammolar yetarlicha. pedagog va adabiyotshunoslarimiz bu mavzuda bir qator ishlarni amalga oshirgan bo'lishsa-da, ularning yutuqlari va xulosalari adabiy ta'lim amaliyotiga to'laligicha kirib kelgan emas. Bularning barchasi metodist olimlarning galdagi muhim vazifalari qatorida turibdi.

### **1.3. Ertak darslarini tashkil etishdagi murakkabliklar**

Kelajagimiz egalari bo'lmish bugungi kun yoshlari qalbiga go'zal fazilatlarni singdirishda adabiyot darslarida o'rganiladigan badiiy asarlar, jumladan, inson tarbiyasi haqidagi axloqiy, ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega adabiy ertaklar chinakam didaktika manbai hisoblanadi.

SHunday ekan, adabiy ertak darslarining to'g'ri tashkil etilishi adabiy ta'limdan ko'zlangan maqsad sari yana bir dadil qadamdir. Lekin amaliyot davrida mazkur

---

<sup>8</sup> . Mirkosimova M. Adabiy suxbatlar (metodik q'llanma). – T.: 2000, 16-bet.

darslarning o'qitilish jarayonida bir qator murakkabliklar mavjud ekanligiga guvoh bo'ldik:

1. Umumta'lim maktablari 5-sinflarida H.Olimjonning "Oygul bilan Baxtiyor" ertak-dostoni o'rganish uchun tavsiya etilgan bo'lib, buning uchun dasturda uch soat ajratilgan. Lekin mazkur dastur asosida yozilgan darslikda ertak matni to'liq keltirilmay mualliflarning asar haqidagi qarashlari berilgan.<sup>1</sup> (9, 84-bet) Agar ertak-dostonni darslikda taqdim etilganidek o'rganiladigan bo'lsa, o'quvchilarda u haqda umumiy tasavvur paydo bo'ladi, xolos. Darsda o'quvchilarertakning o'zi bilan emas, balki mualliflarning asar haqidagi qarashlari bilan tanishadilar, ularning xulosalarini o'zlashtiradilar. Bu butun maktabdagi 5-sinf o'quvchilari ertak haqida aynan shunday fikr, shu kabi bir xil xulosa chiqaradilar, deganidir.

Boshqacha aytganda, o'quvchilar asarga o'zgacha yondoshuv, ayricha munosabat bo'lishini, ularning o'z qarashlari, mustaqil fikri ham bo'lishi mumkinligini tasavvur qilmay shakllanib qoladilar. Bunaqada mamlakat rahbari I.A.Karimov aytmoqchi "vataniga, xalqiga, millatiga fidokor, mustaqil fikrlaydigan, biror bir masalani ongli ravishda mas'uliyat bilan hal qiladigan, izlanuvchan, yangilikka intiluvchi kadrlarni emas, asosan, sayoz saviyali, mute kishilarni ..., ongi qotib qolgan, azmu shijoatdan yiroq, ishning "beliga tepib turadigan " kadrlarni"<sup>1</sup> (5, 40-41-bet) tarbiyalab qo'ymaymizmi?

Qolaversa, uch soat davomida o'qituvchi-o'quvchi nima bilan shug'ullanadi? Birinchi soatda o'quvchilar shoirning tarjimai holi bilan tanishar, deylik. Aslida bugun maktab adabiy ta'limi metodikasida yozuvchi yoki shoirning tarjimai holini o'rganishga alohida vaqt ajratilmaydi, ikkinchi soatda ertak haqidagi adabiyotshunoslarning qarashlari o'rganilsa, uchinchi soatda nazariy ma'lumot ustida ishlanadimi? Bunaqada o'quvchilarni adabiyot darslaridan, badiiy so'zdan lazzatlanishdan mahrum qilib, kitob o'qishdan bezdirib qo'ymaymizmi?

Adabiyot o'qituvchisi bu xatoliklarning oldini olish, ta'lim jarayonini o'quvchilarni mustaqil fikrlashga yo'naltirish, ularni o'z qarashlariga ega bo'lgan, ma'naviy komillik sari yuz tutgan insonlar qilib tarbiyalash maqsadida tashkil etish uchun birinchi darsni yaxlitligicha ertakning to'liq mutolaasiga bag'ishlashi, shundan so'nggina o'quvchilarning ruhiy holatidan unumli foydalanib birgalikda uning

tahliliga kirishishi o‘rinli bo‘ladi. Ertakning to‘liq matnini o‘qituvchi N.Karimov va boshqalar tomonidan 5-sinf uchun yaratilgan darslikdan olishi mumkin. Agar o‘qituvchi asar tahliliga bag‘ishlangan ikki darsni bir kunga ko‘chira bilsa, ketma-ket tashkil etishga erishsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ammo buning imkoni bo‘lmasa, mashg‘ulotlar odatdagi tarzda uyushtirilaveradi. Har ikkala yo‘l ham metodik jihatdan xato bo‘lmaydi.

2. Umumta’lim maktablarining 5-sinflarida Antuan de Sent Ekzyuperining “Kichkina shahzoda” asaridan parchalar o‘rganish uchun dasturda to‘rt soat ajratilgan. Asarni o‘rganishga yo‘naltiruvchi dasturiy talqin quyidagicha:

“Ertak-qissada bolalar olamining mahorat bilan tasvir etilishi, unda abadiyat va foniyli, hayot, muhabbat va o‘lim muammosining o‘ziga xos tarzda tasvir etilishi, Kichkina shahzoda obrazi. Ertakdagi boshqa obrazlar va ular o‘rtasidagi munosabat. Ertakda bolalar ruhiy olamiga xos xususiyatlarning yorqin ifodalanganligi. Ertakning tarbiyaviy ahamiyati.”

Metodika ilmida badiiy asarlarni bo‘laklarga bo‘lib o‘rganishda istagan joyda to‘xtab, keyingi darsda davom etish usuli taqiqlanadi. Buning o‘ziga xos pedagogik va psixologik sabablari bor. O‘qituvchi “Kichkina shahzoda”ni uning boblariga tayanib 4 soatga rejalashtirib olishi va har darsda o‘qilgan bo‘lakning tahlilini amalga oshirishi ham mumkin. Yoki darslikda berilgan parcha yaxlit mutolaa qilinib (bunga 40-45 daqiqa kerak bo‘ladi) so‘ngra o‘quvchilar bilan birga uning tahliliga kirishish ham xato bo‘lmaydi.

Amaliyotchi o‘qituvchilarning “Kichkina shahzoda”ni o‘rganish bilan bog‘liq e‘tirozlarida ham jon bor. O‘quvchilarning uni anglashi qiyin kechayotganini ham tushunish mumkin. Chunki asar ruhi bizning milliy ruhiyatimizga uncha yaqin emas. Avvalo, bizning bolalar hamisha kattalarni haq deb biladilar. O‘zbekning milliy-axloqiy xususiyatlarida, o‘zbekona odob ilmida kattalarni tanqid qilish, ularning xatti-harakatlariga tanqidiy nazar bilan qarash hissi yo‘q. Bu – o‘zbekona axloqiy me‘yor. Bunday tuyg‘u ularning o‘zlari katta bo‘lganlarida, hayotda, odamlarga munosabatda o‘z qarashlari shakllanganda paydo bo‘ladi. 5-sinf o‘quvchilarining qissa qahramonini his qilmayotganliklari va asardan ma’naviy zavq ololmayotganliklari sababi ham shu bo‘lsa kerak.

Yana bir fikr borki, o'qituvchilar dastur va darslikdagi hamma asarlarni darsda o'tishlari majburiy emas. O'qituvchi dastura 15 foiz o'zgartirish kiritishga haqli ekanini ham unutmasligi kerak. Agar "Kichkina shahzoda" o'quvchilarni qiziqтира olishiga ko'zi yetmasa, uni o'zi istagan yoki o'quvchilar ma'qul topgan boshqa bir qiziqarliroq asar bilan almashtirishi mumkin. Faqat bu ishni maktab metodbirlashmasi qarori bilan rasmiylashtirib qo'yishi lozim. Bu haqida dasturda ham to'xtalib o'tilgan: "Dasturda adabiyot o'qituvchilarining tashabbuskorligini uyg'otish, erkin fikrlashiga imkon yaratish hamda adabiy ta'limda o'lkashunoslik materiallaridan foydalanishga imkon berish maqsadida har bir sinfdagi adabiy materiallarning 10-15 foizini mahalliy mintaqa talabi, o'qituvchi va o'quvchilarning istaklariga muvofiq tarzda istagan adabiy siymoning istalgan badiiy yuksak asari bilan almashtirish mumkinligi hisobga olingan. Bunda o'qituvchi o'rganish zarur deb hisoblagan, lekin dasturda ko'zda tutilmagan asarni yillik mavzular rejasiga kiritishi va uning qaysi asar o'rniga tavsiya etilayotganini ko'rsatishi kifoya qiladi. Dasturda zarurat taqozosi bilan adabiy mavzularni o'rganishga ajratilgan soatlar miqdori ham o'zgartirilishi mumkinligi ko'zda tutilgan."<sup>9</sup> Har holda, 5-sinf dastur va darsligida ma'lum o'zgarishlar bo'lgunga qadar, o'qituvchilar "Kichkina shahzoda" ustida ishlashni lozim topsalar, bu borada izlanishlari, yangiliklar yaratib, asarni o'quvchi ruhiyatiga yaqinlashtirishlari lozim bo'ladi.

O'zni kelganda shuni ham aytish joizki, darslikda keltirilgan parchada asarning aslidagi suratlar bilan bog'liq murakkabliklar mavjud: "Rasmlarni muallifning o'zi chizgan", "Mana o'sha surat", "Mana, men chizgan narsa", "SHu rasmni chizib berdim" degan jumlar bor, lekin rasmlarning o'zi yo'q. Bu har qanday kitobxon ruhiyatida e'tiroz uyg'otadi. O'qituvchi o'quvchilariga buning qandaydir izohini tayyorlab qo'yishi, ertak aslidagi rasmlarni topishi yoki o'zi shu rasmlarni chizib kelishi kerak bo'ladi. Aks holda, o'quvchining hafsalasi pir bo'lib qolishi, dars kutilgan samarani bermasligi tayin.

---

<sup>9</sup> Umumiy y'rtta tahlil maktablarining 5-9-sinf y'kuvchilari uchun adabiyotdan y'kuv dasturi. // – Mahrifat., 2007. 4-7-9-oktyabr.

3. Adabiyot olamni o'rganishdan ko'ra, odamni ko'proq bilishga xizmat qiladigan san'atdir. Adabiyot darslarida o'quvchilarni badiiy asarni mustaqil mutolaa qilishga qiziqtirishni ularning ruhiyatiga yaqin bo'lgan ertaklardan boshlash maqsadga muvofiqdir. Ertaklarning qiziqarli syujeti o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, asar qahramonlariga taqlid qilishga, ularning xatti-harakatlariga munosabat bildirishga yo'naltiradi. SHu tufayli ham boshlang'ich sinflar "O'qish kitobi", yuqori sinflar "Adabiyot" darsliklariga ertaklar qatorida adabiy ertaklar ham kiritilgan.

Bir qarashda, adabiy ertaklarni o'qitish ishlari joyidadek ko'rinadi. Lekin sinchiklab e'tibor berilsa, bu jarayonda ham bir qator murakkabliklar mavjud ekanligiga guvoh bo'lish mumkin. Ana shunday murakkabliklardan biri ertaklar va adabiy ertaklar syujeti asosida ishlangan mulg'tfilmlar va kinofilmlardir. Ya'ni bunday mulg'tfilmlar darslikka kiritilgan ertaklar asosida ham ishlangan bo'lib, bu o'qituvchilar oldiga bir qator murakkabliklar keltirib chiqarmoqda. Bu avvalo, mazkur ekranlashtirilgan ertaklar bilan o'quvchilarning tanishligidadir.

Xans Kristian Andersenning "Bulbul", "Qor malikasi" ertaklari asosida mulg'tfilmlar, kinofilg'mlar ishlanganligi ko'pchilikka ayon. O'quvchilar yozuvchining bu ertaklari syujetini filg'mlar orqali yaxshi bilishadi. Bu o'quvchini asarning kinofilg'mini yoki mulg'tfilmini ko'rdim, uni o'qishga hojat yo'q, degan noto'g'ri to'xtamga olib keladi va u janrning badiiy qimmatidan bebahra qoladi. Ana shu jihatdan Yoqutiston maktablarida milliy, rus va jahon ertaklarini qiyosiy o'rgangan I.F.Grigoreva haq:

Muammo shundaki, o'qituvchilar adabiy va xalq ertaklarining syujetini o'quvchilar bilsa bo'ldi, deb o'qigan asarini mushohada qila olish, adabiy bilimlar va kitobxonlik malakasi endigina shakllanayotgan 5-sinf o'quvchisining bunday yo'l tutishiga imkoniyat yaratib berishmoqda.

Bunday ma'naviy tubanlikdan qutulish uchun o'qituvchi o'quvchining e'tiborini jalb qila oladigan metodlardan foydalanib dars o'tishi, ekranda ko'rsatilmagan, faqat so'zdagina aks etgan jihatlarga urg'u berishi maqsadga muvofiqdir.

## **II BOB. Adabiy ertaklarni tahlil qilish orqali adabiy ta'limda samaradorlikka erishish yo'llari**

### **2.1. Adabiy ertaklarni tahlil qilishning o'ziga xos xususiyatlari**

Ma'lumki, adabiy ertaklar umumta'lim maktablarining 5-6-sinflarida o'qitiladi. Metodika ilmida 5-7-sinflar tayanch sinflar deb yuritiladi. Mazkur sinflardagi "adabiy tahlil yuqori sinflardagidan farq qilib, bunda o'quvchilar diqqati matnni ifodali o'qishga, asar mazmunini o'zlashtirishga, yozma va og'zaki nutqni rivojlantirishga qaratiladi. O'qituvchi ko'proq o'quvchi nutqi orqali, uning taassurotlarini tinglashga va fikr-mulohazalarini boyitishga intiladi, asarda tasvirlangan voqea-hodisalarning yaxshi va yomon oqibatlarini tushunib olishlarida o'quvchilarga ko'maklashadi, ma'naviyat tarbiyasiga alohida e'tibor beradi." <sup>10</sup>. Yirik metodist olim, professor M.Mirqosimovning yuqorida keltirilgan fikrlari adabiy ertaklar tahliliga ham xosdir. SHu bilan birga, bu janrdagi asarlarni tahlil qilishning o'ziga xos xususiyatlari ham mavjuddir. Dasturda o'rganilishi nazarda tutilgan adabiy ertaklar tahlili misolida bu o'ziga xosliklarni kuzatish mumkin.

5-sinf o'quvchisining tasavvur olamidagi o'ziga xoslik, kuzatishdagi jonli mushohadaning kuchliligi ertak va unga yaqin mavzularning osonroq va ta'sirliroq o'zlashtirilishiga imkon beradi. SHuning uchun ham bu sinfdan H.Olimjonning "Oygu bilan Baxtiyor" ertak-dostoni bejiz tanlanmagan. Unda adib hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot berish nazarda tutiladi. Asosiy urg'u esa "Oygu bilan Baxtiyor" ertagi syujeti va obrazlar tasviridagi o'ziga xosliklarga qaratiladi. Bu o'rinda tahlilning asosiy yo'nalishi ertakdagi asosiy qahramonlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, bu qahramonlarda bo'rtib ko'zga tashlanadigan a'loqiy-ma'naviy sifatlarni yoritishdan iborat bo'ladi. Ertakda ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash tasviriga e'tibor tortilar ekan, mana shu tushunchalarni ifodalaydigan so'zlarga, ularning qo'llanishidagi o'ziga xosliklarga urg'u beriladi. Ertakning badiiy xususiyatlari, undagi tasvir va ifoda vositalari, asar tilining favqulodda sodda,

---

<sup>10</sup> Mirkosimova M. Adabiy suxbatlar (metodik q'llanma). – T.: 2000, 55-bet

tushunarli va ravonligi, bularning natijasida yuzaga keladigan ta'sirchanligi ustida ishlanadi.

Mazkur ertakning o'z o'qilish ohangi bor. O'qituvchi darsga tayyorlanish jarayonida shu ohangni topib olishi zarur. Uning qaysi qismi yo'g'on ovozda, qaysi bo'lagi siniq ohangda, qay o'rinlari mayinlik va qay biri qat'iyat bilan o'qilishini oldindan belgilab qo'ygani ma'qul. Asarning o'qilish ohangi va ifodaliligi darsning yarim muvaffaqiyati sanaladi. O'qituvchi mutolaasi bilan o'quvchilar ko'nglini bezovta qila olishi, ularning inon-ixtiyorini to'laligicha o'ziga qaratib olishi mumkin. Butun diqqat-e'tibori matnga qaratilgan o'quvchi boshqa narsalarga chalg'imaydi. Bunga ehtiyoj ham qolmaydi. U bor vujudi bilan yoqimli ohangda o'qilayotgan ertakni tinglaydi.

Mutolaa davomida ertak qahramonlarining ruhiyati, fe'l-atvori ifodalangan, ularning tabiati tasvirlangan lavhalarni, shoirning so'zni o'ynatib yuborgan o'rinlarni o'quvchilarga belgilatib borish mumkin. Asar matni ustida ishlanayotganda ajratib qo'yilgan so'z insonlarga xos bo'lgan baland sifatlar, chinakam fazilatlarga qaratiladi, munosabati so'raladi. O'quvchilar tomonidan farqlangan, munosabat bildirishga tortilgan insoniy fazilatlar ularning shaxsiyatida albatta iz qoldiradi.

“Oygul bilan Baxtiyor” – adabiy ertak. Uning birinchi bandidagi tasvirlar esa ertak haqidagi hikoya. Lekin Ayni vaqtda, ular – asl haqiqat ifodalari. Unda tirik inson va uning bolalik tuyg'ulari, hayotidagi eng go'zal davr ifodalangan. SHoirning holati ertakni tinglayotgan bolaning hozirgi vaziyati bilan hamohang. Unda aytilayotgan ertaklarning deyarli barchasi o'quvchilarga ham tanish:

Bolalik kunlarimda  
Uyqusiz tunlarimda  
Ko'p ertak eshitgandim,  
So'ylab berardi buvim.  
Esimda o'sha damlar:  
O'zi uchar gilamlar,  
Tohir-Zuhra, Yoriltosh,  
Oyni uyaltirgan qosh ...

Aytilgan ohangi bilan ham, mazmuni bilan ham o‘quvchi ko‘ngliga xush yoqadi. SHuning uchun ertakning bu bandi ko‘p o‘qilmasidanoq o‘quvchilarning xotirasiga bir umrga muhrlanib qolishi aniq. SHu kabi badiiy so‘zdan ta’sirlangan, go‘zallikka oshno bo‘lgan qalb yomonliklarga qodir bo‘lmaydi.

Bo‘lajak shoirga buvisining aytgan ertaklari va ulardan chiqarib olgan hissalarini qanday ta’sir qilgani, eshitganlarida fikrini tortgan, havasini orttirgan narsalar uning taqdirida qanday rolg‘ o‘ynaganini savol tariqasida o‘quvchilarga eslatib o‘tgan ma’qul. Buvisining ertaklarini tinglayotgan yosh shoir ularning ko‘pi yolg‘on, ko‘pi chin ekanini biladi. Mana shu yolg‘onu chinlarning ta’sir kuchi qanchalar baland ekanini ham his qiladi. So‘zni his qilish, undan ta’sirlanish inson taqdiri uchun qanchalik ahamiyatli ekani o‘qituvchi tomonidan aytilgan ikki og‘iz gap orqali o‘quvchilarning “qulog‘iga tushib qolgani” foydadan xoli bo‘lmaydi.

Umumta’lim maktablarining Adabiyot o‘quv dasturiga adabiy ertaklar qatorida jahon ertaknavislarining asarlariga ham keng o‘rin ajratilgan. Dasturda jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘rganishga doir quyidagi tavsiyalar berib o‘tilgan: “Bu asarlarni o‘rganish milliy adabiyotimiz umumjahon adabiy jarayonining uzviy bir bo‘lagi ekanligini anglatib turadi, ayni vaqtda, o‘quvchilarimiz ma’naviyatini dunyodagi eng nodir san’at namunalarini vositasida shakllanishiga erishiladi. O‘qituvchi jahon xalqlari adabiyoti bilan o‘zbek adabiyoti orasidagi o‘zaro yaqinlikka, ijodiy aloqaga e’tiborni qaratishi va ular taraqqiyotidagi umumiylikka, binobarin, o‘zbeklarning dunyodagi boshqa millatlar ruhiyati bilan yaqinligiga o‘quvchilarning diqqatini jalb etishi zarur.”<sup>11</sup>

5-sinfda Xans Kristian Andersenning “Bulbul” ertagini tahlil qilishda yuqoridagi tavsiyalarga e’tibor qilishi va shulardan kelib chiqishi kerak bo‘ladi.

Adabiyot dasturida mazkur ertakni o‘rganish uchun 3 soat vaqt ajratilgan bo‘lib, o‘qituvchi shu soatning har bir daqiqasidan unumli foydalanib o‘quvchilarni faollashtirishga erishishi mumkin. Buning uchun darsga ajratilgan birinchi soatda

---

<sup>11</sup> Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Ona tili va Adabiyot (5-9 sinflar).– Toshkent, 2010.



ertak o'qituvchi tomonidan to'liq o'qib berilishi, qolgan ikkinchi va uchinchi soatlar esa asar tahliliga bag'ishlanishi maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, o'rta maktablarning 5-8-sinflarida ijodkor tarjimayi holiga batafsil to'xtalish shart emas. Chunki bu yoshdagi o'quvchilar adibning hayot yo'li bilan uning asarlari orasidagi bog'liqlikni u qadar anglab yetmaydilar, ammo adib haqida qiziqqan o'quvchilar mustaqil o'rganib olishlari uchun darslikda ancha keng ma'lumot berilgan. Ertakchining hayot yo'li ibratliligi bilan ajralib turadi. Kambag'al oilada voyaga yetganligiga qaramay, tinmasdan harakat qilganligi, buning ustida 14 yoshida otasidan yetib qolib, hayotning achchiq-chuchugini, mashaqqatlarini erta torgan, qariyb ikki asrdan beri nafaqat kichik yoshdagi bolalar, balki katta yoshdagi insonlar ma'naviyatiga ta'sir qilib kelayotgan buyuk ertakchining hayot yo'li hech kimni befarq qoldirmaydi. Aniqsa, kichik yoshdagi o'quvchilarning ruhiyatiga ta'sir qilib, ularda o'z kuchiga ishonch, rag'bat, ixlos hamda havas uyg'otadi. O'zini har xil kasb egasi, goh qo'shiqchi, goh esa o'yinchi, goh satirik, goh dramaturg sifatida tasavvur qilgan yozuvchi olamga mashhur ertakchi bo'lishini xayoliga ham keltirmagan edi.

psixologlarning ta'kidlashlaricha, 5-sinf o'quvchisi kichik o'spirin yoshiga mansub bo'lib, bu yoshda unda adabiy bilimlar shakllanadi, o'qish oddiy o'qishga emas, adabiy o'qishga aylanadi. Bu yoshdagi o'quvchi asarni shunchaki o'qimay, muallif aytmoqchi bo'lgan fikrni hayot bilan qiyoslaydi va o'ziga yarasha ibratli xulosalar chiqaradi. SHu jihatdan ham yirik metodist olim V.G.Gusevning fikrlari alohida ahamiyatga ega: "Jamiyatda, umuman inson tabiatidagi illatlar real hayotda aksini topmagach, fantastik tarzda ertaklarda o'z yechimiga ega bo'ladi."<sup>12</sup> (10, 29-bet) CHindan ham, Andersen ertaklarini o'qir ekanmiz, ulardagi qariyb ikki asr oldingi muammolar, inson tabiatidagi illatlar bugungi kunimizgacha saqlanib kelayotganligi, hatto ildiz otib ketganligi, hanuzgacha bunday illatlardan voz kecha olmayotganligimiz – bularning bari nafaqat o'quvchilarni, balki katta yoshdagi mulohazali har bir insonni o'yga to'ldiradi. O'qituvchi "Bulbul" ertagidagi bahs-munozaraga turtki beruvchi o'rnlarni aniqlashi, o'quvchilarda fikr uyg'otishi, sinfdagi barcha o'quvchini darsga jalb etishi, asardagi hozirgi kunimiz uchun ham ahamiyatli

---

<sup>12</sup> Гусев Д.Е. Этика фольклора. Ленинград, Наука. 1997г.С-29.

bo'lgan jihatlarga o'quvchilar e'tiborini tortishi lozim, toki farzandlarimiz tabiatida bunday illatlar barham topishi lozim.

Ertakka ajratilgan keyingi ikki soat uning tahliliga sarflanadi. Ko'pchilik metodistlar jahon adabiyotiga mansub asarlarni o'quvchining uyda o'qib kelgani maqsadga muvofiqligi, shunday qilinsa, tili, tarixi, dini, madaniyati va dunyoqarashi o'zgacha bo'lgan adabiyotni tushinish osonroq bo'lishini ta'kidlashadi. Yuqori sinf o'quvchilariga yirik janrdagi asarlarni o'rganayotganda mazkur usul o'zini oqlar, biroq gap Andersenning "Bulbul" ertagi xususida borar ekan, bu qoidaga amal qilish o'zini oqlamasligi mumkin, chunki asarda so'zga yo'g'rilgan muallif estetik g'oyasi mavjud.

"Bulbul" ertagidagi voqealar Xitoy davlatida bo'lib o'tadi. Mamlakatga tashrif buyurgan sayyohlar Xitoy imperatori saroyini tasvirlab, unda yashaydigan jajji sayroqi qush ta'rifini ham keltirishadi. Qizig'i shundaki, na imperator va na amaldorlar bu qushning mavjudligidan voqif bo'lishadi. O'z yurtida shunday qush bo'la turib shu paytgacha bunday sayroqi qushni ko'rmaganidan imperatorning jahli chiqadi va zudlik bilan qushning saroyga olib kelinishini talab qiladi. Amaldorlar sarosimada ... Nihoyat saroy oshxonasida ishlaydigan qizdan bulbulning daragini topishadi.

O'quvchilar e'tiborini vazir va xizmatkor qiz o'rtasidagi suhbatga jalb qilish va bu haqida ularning mulohazalarini eshitish ham dars samaradorligini oshiradi, o'quvchilarni fikrlashga undaydi. Ayniqsa, qizaloqning ... charchab qolsam, o'rmonda maysalar ustida o'tirib, mazza qilib bulbul xonishini eshitaman! SHunday paytda ko'zlarimdan duv-duv yosh to'kiladi, onajonim bag'rida orom olayotganday sevinib, ichimga sig'may ketaman!... degan fikrini yoki bulbulni izlab ketayotganlarida sigirning "mo'"lashini, qurbaqaning "qurr"illashini eshitgan amaldorlar adashib, uni bulbul sayramoqda deb o'ylashganlarini tahlil etish va bundan xulosa yasay olish ham o'quvchilarning ma'naviy kamolotiga katta turtki beradi. Yozuvchi qizdagi beg'uborlik, samimiyat, ko'ngil ko'zining ochiqligi yu qalb go'zalligini ikkiyuzlamachilik, ma'naviy tubanlik, sigirning "mo'"lashiyu, qurbaqaning "qurr"illashi bilan bulbulning xonishini ajrata olmagan amaldorlarga qarama-qarshi qo'yadi va bunday qarama-qarshilikda ham muayyan estetik g'oyani ilgari suradi. O'qituvchi asardagi barcha obrazlar sof insoniy tuyg'ularni qalbakilik, soxtalikdan

ajrata olishida musbat va manfiy qutbni tashkil etishini va bulbul markaziy obraz ekanligini tushuntirishi, bulbul muallif ilgari surmoqchi bo'lgan estetik g'oya ham aynan shu obrazda mujassamlashganini o'quvchilarga yetkazishi lozim.

Tabiiy bulbul go'zal xonishdan ko'ra, nuqul bir qo'shiqni takrorlaydigan sun'iy bulbulning sayrashini afzal ko'rgan saroy amaldorlaridan, imperatordan ko'ngli qolgan bo'lsa ham, podshohning boshiga tushgan tashvishdan voqif bo'lib uni Azroil changalidan qutqaradi. SHu o'rinda o'quvchilar e'tiborini yana bir muhim jihatga, asardagi podshoh jonini olishga kelgan, o'z nomi bilan yovuzlikni ifodalovchi Azroil bilan qudratlilikda undan qolishmaydigan, podshohning sog'ligida soyasiga salom berib yurgan, o'lim to'shagida yotganida esa o'z olampanohlarining tezroq o'lishini kutayotgan, harakatlariga ko'ra quzg'unni eslatadigan amaldorlar shaxsiga jalb qilish maqsadga muvofiq. Bulbulning bitta xonishi bilan imperator jonini olishga kelgan Azroil ham fikridan qaytadi. Ana shu jihati bilan Azroil ham hissiz amaldorlardan yuqori qo'yiladi.

SHu o'rinda mazkur asarning bejiz 5-sinf darsligiga kiritilmaganligini ham ta'kidlash joiz, chunki bu yoshdagi o'quvchi hali tashqi muhit ta'siriga u qadar moslashmaganligini inobatga olsak, ta'sirchanlik, tuyg'ular sofligi o'quvchiga asardagi yozuvchi estetik g'oyasini tugal anglashiga yordam beradi.

Asar tahlili jarayonida o'qituvchi yana bir jihatga ahamiyat berishi o'rinli bo'ladi. Adabiy ertakda sun'iy bulbulning tashqi go'zalligi, bir qo'shiqni qirq martalab qayta-qayta kuylay olish qobiliyatiga qaramasdan, podsho og'ir kasalga chalinib, dardiga taskin topish maqsadida xonish qilishini so'raganida buzilib qolishida ham ma'lum bir estetik g'oya ilgari surilganligiga o'quvchilar e'tiborini jalb etishi, ularning bu haqidagi mulohazalarini eshitishi foydadan xoli bo'lmaydi. Asar so'ngida tabiiy bulbuldagi sadoqat, vafodorlik kabi jihatlarni kech bo'lsa ham anglab yetgan, saroyda qolishni o'tinib so'ragan imperatorga bulbul tomonidan aytilgan quyidagi so'zlar o'quvchilar e'tiboridan chetda qolmasligi lozim:

“Faqat bir narsani iltimos qilaman!”- dedi yana bulbul. – Fuqarolarning ahvoli to‘g‘risida bor xabarni aytib turuvchi jajji qushchang borligini hech kim sezmasin. SHunday bo‘lgani yaxshi.”<sup>13</sup>

Asardagi bulbul tilidan aytilgan ana shunday o‘rinlarni tahlil qilish va bu haqida mulohaza yuritishda chorlash o‘quvchilarda o‘zgalar dardiga sheriklik, birodarlik, mehr-oqibat kabi sifatlarning shakllanishida muhim rolg’ o‘ynaydi.

Dars so‘nggida Andersenning faqat o‘z millati qobig‘ida qolib ketmaganligi, ertaklarida umumbashariyat uchun daxldor muammolarni ko‘targanligini ta’kidlab, ana shunday muammolar jumlasiga barhayot san‘at muammosini kiritganligini ta’kidlash mumkin. Yozuvchining fikriga ko‘ra, xalqqa yaqin hayotni aks ettirgan qobiliyatgina yashashga haqlidir. O‘quvchilar tanishgan ertakda yozuvchi yolg‘on va yasamalikdan iborat mahoratning tabiiy iste’dod bilan to‘qnashuvini aks ettiradi. Tabiiy qobiliyat tabiatga yaqin, uni tabiiy bulbul aks ettiradi. Ertakdagi sun‘iy bulbul esa, aslida mavjud bo‘lmagan o‘lik qobiliyatdir. U tabiiylikdan yiroq bo‘lib, o‘yinchoq bulbulni tabiiy bulbuldan afzal bilgan saroy amaldorlarigagina yoqadi. Ayni vaqtda, tabiiy bulbul, hatto o‘limni ham yengadi, sun‘iy bulbul esa sinovlarga dosh berolmaydi.

Demak, adabiy ta’limdan ko‘zlangan bosh maqsad komil insonni shakllantirishga ko‘mak berish ekan, bu maqsadga erishishda asarlarni to‘g‘ri tahlil etish katta yordam beradi.

## **2.2. Tahlil jarayonida savol va topshiriqlar bilan ishlash**

Ma’lumki, adabiyot o‘quvchini erkin fikrlashga o‘rgatishda, siyratini boy va sog‘lom qilishda katta ahamiyatga ega. Zero, CHo‘lpon aytganidek, adabiyot o‘tkir yurak kirlarini yuvadurg‘on toza ma’rifat suvidir.

Adabiyot faniga shu nuqtai nazardan yondashadigan bo‘lsak, bugungi kun adabiyot o‘qituvchisi oldida mashaqqatli va sharaflil vazifalar turganligi ayon bo‘ladi.

---

<sup>13</sup> Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Ona tili va Adabiyot (5-9 sinflar).– Toshkent, 2010.66-67-бетлар

Bu vazifalarni bajarishda darslik bilan ishlash, undagi tahlil etishga bag'ishlangan matnlar, xususan, savol va topshiriqlar ustida ishlash muhim ahamiyatga ega. Savollar nafaqat o'quvchi, balki o'qituvchining diqqatini qaysi o'ringa qaratish lozimligi, asarning qaysi o'rinlariga urg'u berish mumkinligini ko'rsatadi. Zero, Rumiylar hazratlari aytganlaridek: "Yaxshi savol yarim bilimdir".

Hozirgi davr darsliklarining tuzilishi va mazmuni DTS talablariga mos keladi. Lekin ularni yanada mukammallashtirish hayot talabidir. Darsliklarda berilgan materiallarni o'quvchilarning o'zlashtirishi unda berilgan savol va topshiriqlarga ko'p jihatdan bog'liqdir. Savol va topshiriqlar o'quvchilarni olamni va insonlarni kuzatishga, ularning holatini his qilishga va nihoyat, o'z-o'zini anglashga undaydi. Bu jarayonda o'qituvchi ham, o'z navbatida, o'quvchilarni kuzatib, ularning har biri shaxsning ma'naviyati darajasini aniqlab olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Boshqacha aytganda, savol-topshiriqlar mohiyat e'tibori bilan nafaqat o'quvchi, balki o'qituvchi uchun ham juda muhim ta'limiy-didaktik vazifani bajaradi.

Savol va topshiriqlar umumta'lim maktablari adabiyot darsliklari va darslik-majmualaridagi materiallarning zaruriy qismi bo'lib, ta'lim-tarbiya tizimida o'rganiladigan bilim, o'zlashtiriladigan ko'nikma va malakalar nazoratini ularsiz tasavvur qilish mumkin emas.

5-6-sinflar adabiyot darsliklaridan o'rin olgan adabiy ertaklardan o'quvchilar o'zlashtirishlari zarur bo'lgan bilimlar, tushunchalar yuzasidan tuzilgan. Savol va topshiriqlarda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajalarini hisobga olish bilan bir qatorda, ilmiylik, mantiqiy izchillik, tizimlilik kabi ta'limiy-didaktik tamoyillarga rioya qilinganini ko'rish mumkin.

Buni 5-sinf Adabiyot darsligidagi savol-topshiriqlar asosida ko'rish mumkin. Darslikdagi adabiy ertaklar yuzasidan tuzilgan savol-topshiriqlar berilgan bo'lib, ularda asosiy e'tibor o'quvchilarga ertak haqidagi ma'lumotlarni yanada chuqurroq tushuntirishga qaratilgan. SHu o'rinda aytish mumkinki, professor V.V.Golubkov dars jarayonida badiiy asar tahliliga doir beriladigan savollarni o'z xususiyatiga ko'ra quyidagicha uch guruhga bo'ladi:

1. Taxminiy savollar.
2. Tahliliy savollar.

### 3. Umumlashtiruvchi savollar.

Uning fikricha taxminiy savollar o‘quvchilarni badiiy asarni mustaqil ravishda tahlil qilishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Bu xildagi savollar asar qahramonlari tarkibini, asar qismlarini, syujet unsurlari hamda yozuvchi tomonidan ilgari surilgan muammolarni aniqlashga mo‘ljallanadi. O‘quvchilar ular ustida ishlar ekanlar, ma’lum bir maqsadda badiiy asar mutolaasi jarayonida tug‘ilgan taassurotlarini umumlashtiradilar, badiiy asarlarning so‘z san’atidagi o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga urinib ko‘radilar. Masalan, 5-sinfda Maqsud SHayxzodaning “Iskandar Zulqarnayn” ertak-dostonini dars jarayonida tahlil qilishdan oldin mazkur asar yuzasidan o‘quvchilarning tasavvurlarini aniqlash maqsadida quyidagicha taxminiy savollar tuziladi:

1. Asarda qanday voqealar tasvirlangan?
2. Dostonda ishtirok etgan asosiy qahramonlar kimlar?
3. Asar voqealari asosan qaerlarda bo‘lib o‘tadi?
4. Ertak-doston nima uchun “Iskandar Zulqarnayn” deb nomlanadi?

Ushbu savol ertak-dostonda qo‘yilgan masalalarni aniqlashga, o‘quvchilarning asar qahramonlari tarkibi, syujet va kompozitsiyasi, xarakterlar evolyutsiyasi xususidagi ilk taassurotlarini umumlashtirishga, ba’zi bir muhim muammolarni nomuhimlaridan ajratishga yordam beradi. Bu xildagi taxminiy savollar asar tahlilidan oldin berilib, ma’lum ma’noda asar bilan tanishishga tayyorgarlik bosqichini o‘taydi.

Tahliliy savollar tarzida tavsiya etilgan ikkinchi guruhga mansub savol-topshiriqlar badiiy asarning umumiy mazmunini aniqlash asosiy qahramonlar xakteri evolyutsiyasini belgilash, asar kompozitsiyasi, syujet qurilishi hamda badiiy til xususiyatlarini tahlil qilishga yordam beradi. “Oygul bilan Baxtiyor” ertak-dostoniga doir tahliliy savol va topshiriqlar quyidagi tarzda tuziladi:

Ertak mutolaasidan so‘ng asar matni ustidagi ish “Nima deb o‘ylaysiz, shoir ertakning birinchi bo‘limini bolalik xotiralariga bag‘ishlanganligi sababi nimada bo‘lishi mumkin? Asardagi

“Buvimning har qissasi,

Har bir qilgan hissasi.

Fikrimni tortar edi,

Havasim ortar edi.”

Misralarida ko‘zda tutilgan mazmun haqida o‘ylab ko‘ring. Bo‘lajak shoirga buvisining qaysi ishlari bu qadar kuchli ta’sir ko‘rsatganligini ayting. Ertakdagi:

“ Tinglar edim betinim,  
Uzun tunlar yotib jim.  
Seza olardim kuchin,  
Ko‘pi yolg‘on, ko‘pi chin.”

satrlariga e’tibor bering. Gap nima haqida ketayotganligini anglating va shoirning shunday deyayotganligi sababini tushuntiring” kabi savol-topshiriqlarni o‘rtaga tashlashdan boshlanadi. Mazkur tahliliy savol-topshiriqlar ustida ishlanayotganda asarning birinchi bandini qayta o‘qib berish ham mumkin.

Ba’zi o‘rinlarda tahliliy savollarning mazmunini o‘quvchi anglamay qolishi mumkin. SHunda o‘qituvchi ularni o‘quvchilarning tiliga yaqinlashtirishi, nisbatan jo‘nlashtirishi ham mumkin. Toki savolda ko‘tarilgan masala o‘quvchiga tushunarli bo‘lsin. U savolga javob berishi uchun matnning qaeriga qarashi, nimalarni eslashi lozimligini to‘liq tasavvur qila olishi kerak. SHunda o‘quvchining javoblari asosli, salmoqli bo‘ladi. Fikri qat’iylashadi. Buning uchun u matnni o‘qituvchi bilan birga ichdan o‘qib, matnning o‘qituvchi ta’kidlagan joylariga ma’lum belgilarni qo‘yib borishi talab qilinadi.

Ertak mazmuni yuzasidan taqdim etilgan:

“Asarda Darxon tilidan bayon etilgan:

“Bosh ko‘tardik, zulmdan  
Bo‘lmoqchi edik ozod  
Lekin bu gal bo‘lmadi,  
Ammo tilak o‘lmadi”

iqrori zamirida qanday ma’noni angladingiz? Darxon o‘ldi-ku, tilakning o‘lmagani nimani anglatadi?” singari tahliliy savollar o‘rtaga tashlanganda qul Darxonning xon bilan to‘qnashuvi sahnasi, uning xonga munosabati sabablarini o‘quvchilar matnga tayangan holda o‘zlari tahlil qilganlari ma’qul. SHunda ular qo‘zg‘olonchilarning tilagi – zulmdan ozod bo‘lish ekanini, zulm, xorlik, qashshoqlik bir kun shunday yakunlanishi aniq ekanini o‘zlari kashf etadilar.

“Xon qovog‘ini uydi, Bulutlar yomg‘ir quydi” tasviri zamiridagi badiiy ma‘noni topishga yo‘naltirilgan topshiriqda o‘quvchilar matnning shu o‘rniga murojaat qiladilar. Xonning qovog‘ini uyishi bilan osmonning yomg‘irli holati o‘rtasidagi o‘xshashlikni ularning biri bo‘lmasa, biri topadi. O‘qituvchi bu holat shoirning mahorati ekanini bir og‘iz so‘z bilan bildirib qo‘ygani ma‘qul.

Ozodlik sari Darxondek mard, dovyurak odamlar yo‘l boshlaydilar. SHunday odamning farzandi bo‘lmish Oygulning taqdirga tan berib, xon saroyida yashab qolishi mumkin emas edi. Dovyurak kishilarning do‘stlari ham ko‘p bo‘ladi. “Qora kun”da, g‘amda insonlar bir-birlariga yaqinlashadilar, birlashadilar. G‘am-alam nafaqat odamlarni, hatto hayvonlarni ham birlashtiradi.

O‘quvchilar ertakdagi:

“Qaldirg‘och qoshlaridan

To‘yib qaroshlaridan

Hayot sochilar edi

Gullar ochilar edi.

tarzidagi misralar kim haqda ekanini va nima uchun shunday ifodalanganligini o‘ylab ko‘ring” topshirig‘ini bajarish uchun matndan shu o‘rinni topgan o‘quvchilar uning Oygul haqida ekanini darrov anglaydilar. Uning shunday qarashi, bu qarashlardan “hayot sochilishi, gullar ochilishi” sababini ham o‘zlaricha topishga urinadilar. O‘quvchilar bu bilan o‘z ma‘naviy kamolotlarini tezlashtirishda ishtirok etadilar.

Susambilga ketmoqchi bo‘lgan jambilliklarga “Oygul nazar tashladi, SHunday bir so‘z boshladi :

Zolim xon quchdi o‘lim,

Endi sizga yo‘q zulm.

El, osoyish yasharsiz.

Va bekoyish yasharsiz.

Susambilni qo‘yinglar

Va Jambilni suyunglar.

Sizni kidir tuprog‘i,

Sizniki toshu tog‘i.

Xon bo‘lmasa Jambilda,



Qayg‘u ham bo‘lmas dilda  
Mana bu ota Tarlon  
Hammamizga bosh bo‘lur.  
Sizlar uchun berur jon,  
Har yerda yo‘ldosh bo‘lur.

Bu gaplari bilan Oygul vatandoshlariga yurt, uning tuprog‘i, toshigacha azizligi, o‘zgalarning Susambilidan o‘zlarining Jambilini qanchalar baland turishini ta’kidlaydi. Bu hayotiy haqiqatni o‘quvchilar ham anglashlari maqsadga muvofiq. Chunki asl farzand kambag‘al yurtni tashlab qochmaydi, balki qo‘lidan kelganicha uni farovon qilishga intiladi.

O‘qituvchi tomonidan o‘rtaga tashlanadigan “Siz o‘qigan “Susambil” ertagi bilan doston-ertakdagi Susambil yurti o‘rtasida yaqinlik bormi?”-savoli o‘quvchilarni o‘tgan darslarda olgan bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu takrorlash o‘z navbatida ularni ta’limning taqqoslash, qiyoslash metodlarida ishlashga o‘rgatadi. Bundan tashqari, shoirning o‘zbek xalq ertaklarini yaxshi bilgani, ertakning dastlabki bobida aytganlari nechog‘li haqiqat ekanidan dalolat hamdir.

Asarning mazmuni yuzasidan tuzilgan tahliliy savol-topshiriqlarning har birida o‘quvchi diqqatini qaratishi, uning shuuridan o‘qishi, ko‘ngliga o‘rnashib qolishi kerak bo‘lgan lavhalar, fikrlar bo‘lishi zarur. Asarning badiiy jihatdan go‘zal chiqqan o‘rinlari savol-topshiriqlarda o‘z aksini topishi, ularning har biriga badiiy, axloqiy, ijtimoiy, ma’naviy yuk qo‘yilishi, ularning har biri o‘quvchini asar matnini shunchaki takrorlashga emas, u haqda o‘ylashga, mulohaza yuritishga, tasavvur qilishga yo‘naltiradigan tarzda bo‘lishi zarur.

Ertak mazmuni yuzasidan o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga taqdim etiladigan tahliliy savol-topshirqlar:

1. O‘ylab ko‘ringlar-chi , ertakdagi:

Qora kunda qul Tarlon  
Qizga qayg‘udosh keldi,  
G‘amiga yo‘dosh keldi.

satrlarida “qora kun” birikmasi nimani ifodalayapti?

2. O‘tinchi chol: “hovliqib, bo‘lib xushhol qaqqayib turib qoldi.”

Nega shunday ekanini tushuntiring.

3. U yo‘q edi o‘zida,  
Bir sandiq suv yuzidi.  
Lopillab kelar edi,  
To‘lqinda yelar edi.  
Olmayin ikki ko‘zin  
Yerini solib darhol,  
Sandiq ketidan o‘zin  
Daryoga tashladi chol.

tasviriga tayanib cholning qanday odam ekanligi haqida fikr ayting.

4. Oxirida qiz turib,  
Yerga qadar bukilib,  
Ularga ta‘zim qildi  
CHolga qarab egildi.

misralarida xonlarga bo‘yin egmagan qizning podachilarga ehtirom ko‘rsatishini qanday tushundingiz?

5. Oygulning tabiatini anglashga yordam beradigan quyidagi satrlar:

Ikki katta halqalik,  
Gavhar topuvdi unda.  
Qadrini bilgan edi,  
Ehtiyot qilgan edi,- misralarida nima haqida gap ketayapti?

6. Oygul ulardan qanday foydalandi?

7. Bu, sizningcha, nimadan dalolat beradi?

8. Eslab ko‘ring-chi, Susambil mamlakati, uning o‘ta obodligi haqida yana qaysi ertakda o‘qigansiz?

9. Susambil degan mamlakat borligiga ishonasizmi yoki har qanday ozod va obod yurtni Susambil deb atasharmikin?

10. Oygul bilan Baxtiyorning tabiatiga xos xususiyatlarni sanang va o‘xshash tomonlarini ko‘rsating, tarzida taqdim etilsa, o‘quvchilarda ertak mazmunini chuqurroq anglash imkoniyati tug‘iladi. Bundan tashqari, badiiy asarlar mohiyatiga shu tariqa kirib borgan o‘quvchilar keyinchalik badiiy asarlarni

shunchaki o'qimaydilar. O'qituvchi oxirgi topshiriqni uy vazifasi sifatida ham berishi mumkin .

Yana shuni alohida ta'kidlash joizki, o'qituvchining bu kabi savol-topshiriqlariga sinfdagi hamma o'quvchilar javob berishlari shart emas. Ma'lumki, Xudo har kimga har xil qobiliyat va imkoniyat ato qilgan. Bilimlarni har bir o'quvchi o'z imkoniyati doirasida o'zlashtiradi. O'quvchidan imkoniyatidan ortiqcha bilimni talab qilish uni ta'lim olishidan bezdirib qo'yishi mumkin. SHuning uchun o'qituvchi savollariga javob berolgan o'quvchilarni rag'batlantirishi, buning uddasidan chiqolmaganlarni esa zo'rlamagani ma'qul. Ular boshqa – o'z imkoniyatlari doirasidagi topshiriqlarni va shu asosda baholanishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Uchinchi guruh savol-topshiriqlar umumlashtiruvchi xususiyatga ega. Ular asarning ijtimoiy-tarixiy, badiiy-tarbiyaviy mohiyatini ochish, yozuvchining uslubi, badiiy mahorati, qirralarini aniqlashga yo'naltirilishi bilan muhim ilmiy-metodik ahamiyat kasb etadi. Umumlashtiruvchi savol va topshiriqlardan biror yozuvchi ijodining boshqa yozuvchilar ijodidan farqli jihatlarini taqqoslab o'rganishda, katta hajmli badiiy asarni yoki yozuvchi ijodini to'la o'rganib bo'lgandan keyin takrorlash va mustahkamlash darslarida foydalanish mumkin.

Har qanday darsning o'quvchilar uchun jonli va qiziqarli o'tishi ko'p jihatdan ularga beriladigan savol va topshiriqlarning mazmuni hamda maqsadiga bog'liq. Har bir mavzu yoki badiiy asar yuzasidan beriladigan savol va topshiriqlar o'quvchilar uchun tushunarli, aniq va lo'nda bo'lini kerak.

Savol va topshiriqlarning haddan tashqari maydalab yuborilishi darsning zerikarli bo'lishiga olib keladi. Bunday hol o'quvchilarning asosiy masala qolib, ikkinchi darajali masalalar bilan shug'ullanishiga sabab bo'lardi, ularni darsda ko'zda tutilgan asosiy maqsaddan chalg'itadi, mustaqil fikrlashga yo'l bermaydi.

SHuningdek, savol va topshiriqlarning an'anaviy so'rovnomalar shaklida "Ha" yoki "Yo'q" tarzida javob berishga mo'ljallab tuzilishi ham metodik jihatdan o'zini oqlamaydi.

Savol va topshiriqlarning sodda-murakkabligidan qat'iy nazar, o'qituvchilar maxsus tayyorgarlik ko'radilar. O'qituvchi o'zining pedogogik tajribasidan kelib

chiqqan holda savol va topshiriqlarni mazmunini o'rganishga kirishishdan oldin, o'rganish davomida yoki mavzu bilan tanishganidan so'ng berish mumkin.

U yoki bu mavzuni o'rganish jarayonida beriladigan savol va topshirqlar ko'proq diologik xarakterda bo'lgani, o'quvchilarning diqqat-e'tiborini asosiy masalaga qaratishga yordam beradi, faollikka o'rgatadi, uzoq vaqt mulohaza yuritishni taqozo qilmaydi.

Mavzu bilan tanishgandan so'ng beriladigan savol va topshiriqlar o'quvchilardan mulohaza yuritishni, o'z fikrini mantiqiy izchillik va misollar bilan dalillashni taqozo etadi.

Buning uchun o'quvchilar savol va topshiriqlarda bayon etilgan muammolarni puxta o'rganib chiqishlari, matn bilan tanishish jarayonida o'zlashtirgan bilimlarini umumlashtirishlari, muayyan tizimga solishlari lozim.

Nazariy va metodik jihatdan to'g'ri qo'yilgan savol va topshiriqlar o'quvchilarda mavzuni o'zlashtirish orqali dunyoqarashni shakllantirishga, yozma va og'zaki nutqni rivojlantirishga, ularning ma'naviy kamolotini boyitishga xizmat qiladi. 5-sinfda o'rganilishi ko'zda tutilgan "Kichkina shahzoda" ertak-qissasi bo'yicha o'qituvchi tomonidan tuzilgan savol-topshirqlar shu jihatdan talabga javob berishi mumkin.

Asar to'liq o'qib bo'linganidan so'ng, keyingi darslarda uning matniy tahliliga kirishiladi. Gap ana shu tahlilning qanday metod va usullardan foydalanib amalga oshirilishida.

"Kichkina shahzoda" ertak-qissasi dunyodagi ko'p tillarga tarjima qilingan. Unda Antuan de Sent-Ekzyuperining nihoyatda nozik qalbli, xayolot olami boy, sog'lom mantiq asosida yashaydigan o'zga sayyoralik bolakay timsolini yaratgan. Kichkina shahzoda yaxshini yomondan, go'zalni xunukdan farqlay olmaydigan, fantaziyasi qotib qolgan kattalar ruhiyatini tushunmaydi. Asarda hodisalarga tor manfaat yuzasidan qaraganligi, bag'ri keng bo'lolmagani uchun bir-birini anglamay, bir marta beriladigan hayotda maza qilib yashash o'rniga urushlarni, qirg'inlarni o'ylab topadigan kattalar shahzodaning kinoyaviy nazari bilan tasvirlanadi. O'quvchilarga asardagi mana shu haqiqatlarning kashf etilishiga ko'maklashish kerak. Buning uchun o'qituvchiga asar matni yuzasidan

tayyorlangan savol-topshiriqlar yordam beradi. Darslikda taqdim etilgan savol-topshiriqlar bilan o'quvchilar asarning mohiyatiga kira olmaydilar. SHuning uchun o'qituvchi asar matnidagi diqqatga sazovor o'rinlarni savol yoki topshiriqqa aylantirib, o'quvchilarning e'tiborini asarga qaratishi kerak bo'ladi.

Asar tahlilining asosiy quroli bo'lmish savol-topshiriqlarning dastlabkisi "qissa qahramoni chizgan rasmga kattalarning munosabati ularning jo'g'rofiya, tarix, arifmetika va husnixatni o'rganish borasida bergan maslahatlari hamda shu sababli rassomchilikning porloq istiqbolidan voz kechishga majbur bo'lgani"ga o'z munosabatingizni bildiring!"-topshirig'iga javob berish uchun o'quvchilar mustaqil mulohaza yuritishlari kerak bo'ladi. Avvalo, jungli haqida xayol surish uchun u haqida biror narsa bilish kerak. O'sha sarguzashtlarni tasavvur qilish kerak. Kishining xayolot olami chegara bilmaydi. Xayolda aqlga sig'maydigan ishlar ham oppa-oston sodir bo'laveradi. Hikoyachini rasm chizishga undagan narsa ham undagi xayol ufiqining kengligi bo'lsa ajabmas. Maslahat bergan, uzoqni ko'ra biladigan kattalarning haq ekani ko'rinib turgan bo'lsa-da, ular nafaqat asar qahramoniga, balki shu darsda o'tirganlarga ham yoqmasligi mumkin. Lekin baribir, kattalar haq ekanini o'quvchilar ichdan tuyib turadilar. O'qituvchi o'quvchilarning javoblaridan buni ilg'ashi mumkin. Lekin kattalarning "aqliligi" bilan shakllanib kelayotgan iste'dod yo'qqa chiqariladimi? Kattalar bu bilan hisoblashishlari mumkinmidi? O'quvchilar shular haqida ham o'ylab ko'rsinlar.

Muallifning bolalikda chizgan dastlabki surati haqida kattalarning "SHlyapaning nimasi qo'rqinchli ekan?" shaklida munosabat bildirishlari sababi haqida o'ylab ko'ring. Bu borada o'zingizning dastlabki "suratchi" ligingizga tayaning, topshiriqlari o'quvchilarni o'z atrofidagi kattalarga asar qahramoni nazari bilan qarashga undaydi. Masalaga chuqurroq yondashishga qodir o'quvchilar o'z hayotidagi har xil vaziyatlarga, voqealarga kattalarning munosabatini bildirib, uni o'z nuqtai nazaridan kelib chiqib baholaydi. Balki bu haqda o'rtoqlariga so'zlab ham berar. O'qituvchi Ushbu vaziyatni, garchi asosiy ishdan bir oz chalg'ilsa-da, qo'ldan chiqarmasligi kerak. Hikoyachining: "Axir, kattalarga hamma narsani doim tushuntirib berish kerak-da",-degan ta'kidiga qanday munosabat bildirasiz? Siz ham shunday deb o'ylaysizmi? – savoli o'quvchilarni bir oz o'ylantirishi

tabiiy, ko‘pincha bizning bolalar nazarida kattalar hamisha haq va ular hamma narsani biladilar. Ekzyuperining qahramoni esa kattalarni tanqid ostiga olyapti, endi o‘quvchilarda ikki xil qarash paydo bo‘ldi. Ular o‘zligi va hikoya qahramonini qiyoslashi, taqqoslashi mumkin. Ayrimlar qay biri to‘g‘ri ekanini ajratolmay, mavhum bir holatda tahlilda ishtirok etaveradi. Lekin bu ikkilanish ham ularning shaxsiyatiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatishi tayin.

“Qahramonning : “Kattalar hech qachon o‘zlaricha Biron narsani tushuna olmaydilar, ularga ha deb hijjalab tushuntirib beraverish esa oxir-oqibat bolalarning ham joniga tegib ketadi”, - degan fikrini qanday tushundingiz? Aslida, hazilomuz yo‘sindagi bu fikrda ham asar qahramoni haq. Bolalar o‘zlarining har bir qilgan nojo‘ya ishlari uchun kattalarga hisob beraverishdan charchaganlarini eslab, asar qahramonini yaxshi ko‘rib qolishlari ham mumkin. Va bu, ehtimol, yaxshidir. Chunki o‘quvchilar va adabiy qahramon bir-birlarini tushunib borishyapti.

O‘quvchining mustaqil mulohaza yuritishga undaydigan navbatdagi topshiri, ya‘ni hikoyachining “Kattalar orasida uzoq vaqt yashadim, ularni yaqindan ko‘rdim, bildim. Va bundan, tan olishim kerakki, ular haqidagi fikrim yaxshi tomonga o‘zgarmadi,” – degan xulosasiga e‘tibor qiling. “Asarda kattalar va bolalarning bu tarzda qarama-qarshi qo‘yilayotganligi sababi haqida o‘ylab ko‘ring”, - topshirig‘i o‘quvchilarni ancha o‘ylantiradi. Avvalo, “kichkina rassom”ning kattalar haqidagi fikri qanaqa ekanini bolalar bir esga olinglar. So‘ng qahramonning ikkala holatdagi munosabatlariga, qarama-qarshilikning sababiga e‘tibor qaratiladi. Shahzodaning nazarida kattalar bolalarni tushunmaydilar, kattalarning o‘z belgilab olgan yo‘llari bor va bolalar xohlaydilar mi-yo‘qmi, bundan qat‘i nazar, shu yo‘ldan borishlarini talab qiladilar. Ular hayotiy tajribalari, bilimi va aqli borasida bolaga nisbatan uzoqroqqa qaraydilar, kichiklarning fe‘l-atvori, qiziqishlari, intellektual imkoniyatlarini hamisha ham hisobga olib o‘tirmay, mantiqan kelib chiqib, o‘z talablarini qo‘yadilar. Holbuki, bolakaylar – xayolot kishilari. Oradagi qarama-qarshilikning sababiham shunda.

Yuqoridagi: “Men shu tariqa yolg‘izlikda yashardim, dilimni anglaydigan biror hamdardim yo‘q edi...” – shaklidagi anduhli xulosa haqida o‘ylab ko‘ring.

Hikoyachining yolg'izligi sababi nimada deb o'ylaysiz? – degan savol-topshiriq ustida ishlash uchun ham o'quvchilar o'ylashga majbur bo'lishadi. Kattalardek mulohaza yuritadigan “kichkina” qarashlarini o'ziday qabul qiladigan hamdard yo'qligi tufayli o'zini yolg'iz deb hisoblaydi. CHindan ham, kishining atrofida hamfikir, dildoshodamlar bo'lmasa, u o'zini yolg'iz sezadi. Uning bu holatini vaziyatidan kelib chiqib, kattaor ham, kichiklar ham tushunishi, uning anduhli xulosasiga qo'shilishi mumkin.

“Kichik shahzodaning hikoyachidan aynan qo'zichoq chizib berishni so'raganligi sababi haqida mulohaza yuriting. Sizningcha, qo'zichoqda qanday ramziy ma'no bor?” savoliga javob berish uchun o'quvchilar matnga murojaat qiladilar. Kichik shahzodaning iltimosi sababi va qo'zichoqdagi ramziy ma'no shahzoda va hikoyachi o'rtasidagi suhbatda anglashilishi zarur. Agar o'quvchilar buni ilg'ay olmasalar, o'qituvchi shu topshiriqni uy vazifasi sifatida berishi mumkin. Ular o'ylashda davom etsinlar.

“SHahzodaning bo'g'ma ilon va fil suratini ko'rib: Yo'q, Yo'q! Menga ilon ham, fil ham kerak emas! Ilon haddan tashqari xavfli, fil esa haddan tashqari katta,” – deya munosabat bildirgani haqida nima deya olasiz? Bolalar bir-birini deyarli hamisha tushunadilar. SHahzodaning rasmda ifodalagan tasvirni darhol anglagani ham, unga munosabat bildirgani ham shundan. O'quvchilar shuni bilishlari kerak. Ular bunday mulohaza yuritishga balki, hozircha qodir emasdir, lekin ularni shunga yo'naltiradi. SHu o'rinda o'quvchilarning diqqati shahzodaning hikoyachi chizgan suratlarga bildirgan e'tirozlariga bolaning diqqati tortilishi kerak.

“U rasmni sinchiklab ko'zdan kechirgach:

–Yo'q, bu qo'zichoq judayam oriq-ku, - dedi .

– Boshqasini chizib ber.

Men boshqa qo'zichoq rasmini chizdim.

Yangi do'stim xushfe'llik bilan muloyim jilmayib qo'ydi.

– Bu qo'zichoq emas-ku, - dedi u. –O'zing ham ko'rib turibsana, Qo'chqor-ku bu.

Anna shoxi ham bor...

Men qo‘zichoqni tag‘in boshqatdan chizdim. Biroq, bu rasm ham unga ma‘qul bo‘lmadi.

– E, buning o‘lguday qari-ku. Menga uzoq yashaydigan qo‘zichoq kerak.”

O‘quvchilar shu o‘rinda chizilgan rasmini bunchalik oson tushunib, tez tahlil qila oladigan kichik shahzoda bilan rasmlarni shlyapa degan kattalarni taqqoslashlari kerak. Ular buning sabablari haqida o‘ylasinlar. Balki kattalar katta bo‘lgani uchun tushunmagandir? Balki kattalar bilan bolaning yoshi orasidagi masofa juda uzoqdir? Balki kattalar hayot tashvishlari va muammolari bilan bo‘lib, bolalardan juda ham uzoqqa ketib qolishgandir? O‘quvchilarning mulohazalari shu yo‘sinda kechsa, yo‘nalish to‘g‘ri belgilangan bo‘ladi.

Qo‘zichoqni kunduzlari bog‘lab qo‘yish uchun arqon bermoqchi ekanini eshitib: “kichkina shahzodaning qoshlari chimirilganligi sababi haqida o‘ylab ko‘ring. Bog‘lab qo‘yasan? Nima keragi bor buning?”, - degan savollariga tayanib, shahzodaning “qanday bola ekani haqida fikr bildiring, topshirig‘i ham o‘quvchilarni anchagina o‘ylantiradi. O‘quvchilarning e‘tiborini yerliklarning nazari bilan o‘zga sayyoraliklar ko‘z qarashi orasidagi tafovutda, ularning har biri o‘z sharoit va imkoniyatlariga qarab ish tutayotganiga har tortish kerak. SHunday narsalar bo‘ladiki, ular bilan hamma kattalar ham, bolalar ham hisoblashishi kerak. Ehtimol, kichkina shahzoda o‘z sayyorasi juda kichik bo‘lgani uchun shunday deyayotgandir. Balki qo‘zichoqning ozodligiga daxl qilmaslik uchundir. Buni o‘quvchilar o‘zlari aniqlaganlari va fikrlarini asoslaganlari ma‘qul.

1909-yilda yangi sayyorani kashf qilgan olim haqidagi: “O‘shanda astronom ajoyib kashfiyoti haqida xalqaro astronomiya kongressida ma‘ruza qilgan, ammo uning gapiga biror kimsa ishonmagan, chunki u turkcha kiyingan edi” tarzidagi izoh haqida o‘ylab ko‘ring. Gap til haqida emas, kiyim to‘g‘risida ekaniga e‘tibor qiling”, “O‘sha astronom 1920-yili kashfiyoti haqida tag‘in ma‘ruza qildi. Bu safar u eng so‘nggi modada kiyingan edi – hamma uning gapini ma‘qulladi” kabi xulosasini yuqoridagisi bilan solishtiring. Kattalar qaroridagi mantiq haqida o‘ylab ko‘ring”- topshiriqlarida ham shahzodaning kattalar haqidagi tasavvuri namoyon bo‘ladi. Bu masalaga o‘quvchilar o‘zlarining jajjigina hayotiy tajribalariga asoslanib javob berishga undasalar, maqsadga muvofiq bo‘ladi.



Asardagi: “Ana shunaqa g‘alati xalq bu kattalr. Ular xafa bo‘lib o‘tirishga arzimaydi. Bolalar kattalarga nisbatan kengfe‘l va kechirimli bo‘lishlari lozim”, - degan xulosaga munosabat bildiring” – topshirig‘idagi talabni o‘quvchilar ham boricha qabul qilganlari ma‘qul. Bolalikdan kengfe‘llikni, kechirimlilikni o‘z tabiatlariga singdirishni eplay olsalar, bizdan keyingi avlod bizdan yaxshiroq bo‘lishiga kafolat berish mumkin.

Asardagi: “dunyoda do‘stlarni unitib yuborishlan ham qayg‘uliroq narsa yo‘q”, - degan xulosaga munosabatingizni bildiring”, “hikoyachining: “... afsuski, men quticha devorlari aro qo‘zichoqni ko‘rishga qodir emasman. Balki men kattalarga ozroq o‘xshab ketarman” tarzidagi anduhi sababi to‘g‘risida o‘ylab ko‘ring” topshiriqlariga javob berishda ham asar matniga tayanish kerak.

Falsafiy mushohada qilishni talab qiladigan bunday topshiriqlar o‘quvchi dunyoqarashini qashshoq bo‘lib qolishdan asraydi, “o‘quvchi tafakkurini zo‘riqtiradigan bo‘lsa, katta metodi ahamiyat kasb etadi”<sup>14</sup>. Lekin 5-sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan savol yoki topshiriqlar yuqoridagi kabi murakkab tarzda berilishi ba‘zi o‘quvchilarda kutilayotgan natijani yo‘qqa chiqarishi, ularni mavhumot oldiga keltirishi mumkin. “Topshiriqlardan maqsad o‘quvchilarni qiynash emas, balki ularning badiiy matnni imkon qadar chuqurroq idrok etishlariga sharoit yaratib berishdir”<sup>15</sup>. Murakkab savol-topshiriqlar o‘quvchini o‘qituvchi ko‘magiga qaram qilib qo‘yishi mumkin. Bu holda o‘quvchida o‘ziga ishonmaslik, dangasalik illatlari paydo bo‘ladi. To‘g‘ri, o‘smir o‘z kuzatishlarida narsa va hodisalarning fahmiga yetishda kattalarning yordamiga ehtiyoj sezadi. Agar ular ana shu yordamdan mahrum bo‘lsalar, narsa va hodisalar haqidagi tasavvurlari bir tomonlama bo‘lib qolishi mumkin. Gap shundaki, o‘quvchiga kerakli yordam o‘qituvchi tomonidan emas, darslik tomonidan berilishi kutilayotgan natijani samarali qiladi. Chunki o‘quvchi topshiriqni muallim buyrug‘ini bajarish uchun emas, balki o‘z kuchiga ishongan holda bajaradi.

---

<sup>14</sup> . Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. -T.: “O‘qituvchi”, 1996 – 150 b.

<sup>15</sup> Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. -T.: “O‘qituvchi”, 1996 – 62 b.

O‘qituvchi o‘quvchilarga uy vazifasi sifatida o‘z tasavvurlaridagi shahzodani, hikoyachi va uning chizgan suratlarini chizishni topshirishi mumkin. Yoki o‘quvchilardan chizilgan suratlariga sharh berishni talab qilish ham mumkin. Har ikkala topshiriqning natijasi ijod mahsuli hisoblanadi. Ijod esa mustaqil fikr natijasi. O‘qituvchi uni munosib baholay bilishi kerak bo‘ladi.

O‘qituvchi darsda savol va topshiriqlarning qaysi turini qo‘llamasin, diqqat markazida adabiyot predmetining vazifalari va o‘ziga xos xususiyatlarini tutish lozim.

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, savol-topshiriqlar quyidagi talablar asosida tuzilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- o‘quvchilarni mustaqil va atroflicha fikr-mulohaza yuritishga yo‘naltirilishi;
- ularning bilim saviyasi va hayotiy tajribasiga mos bo‘lishi;
- o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashi va ahloqiy tushunchalarini shakllantirishga xizmat qilishi;
- ularning badiiy-estetik tafakkurini yuksaltirishga yordam berishi;
- nutqini boyitishi.

Ammo ko‘p darsliklarning mualliflari savol va topshiriqlar tuzishda mutanosiblikka hamisha ham qat’iy amal qilmaganlar. Bu holni adabiy ertaklar yuzasidan tuzilgan savol-topshiriqlarda umumiylik, bir xillikka yo‘l qo‘yilgan : “Bulbul” ertagining qisqacha mazmunini bayon qiling. Undagi qahramonlarni tavsiflang. “Umr haqida ertak” asarining mazmunini so‘zlab bering. Sayyoh chol nima maqsadda dunyo kezadi? U o‘z izlagan narsasini topadimi?

SHuningdek, darslikda “savol, topshiriqlar mualliflarning o‘quvchi og‘irini yengil qilishni o‘ylab qilgan “mehribonlik”lari tufayli faktologik xarakter kasb etib qolmoqda”<sup>16</sup>. Xususan, darslikda M.SHayxzodaning “Iskandar Zulqarnayn” ertak-dostoni bo‘yicha 7ta savol va topshiriqlar berilgan bo‘lib, shulardan aksariyati faktologik xarakterda yoki savollarning javoblari darslikda mavjuddir: 1.“M.SHayxzodaning tarjimai holini gapirib bering”, 2. “SHoirning qanday doston va she’riy to‘plamlarini bilasiz?”, 3.“M.SHayxzodaning dramatik

---

<sup>16</sup> Kodirov V. Mumtoz adabiyot: ykitish muammolari va yechimlar. – T.: Alisher Navoiy nomidagi Y‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009, 20-bet.

asarlaridagi tarixiy voqealar va tarixiy shaxslar haqida soʻzlab bering”, 4. “Oʻzbek adiblaridan yana kimlarning sheʼriy ertak-dostonlari sizga tanish?”, 5. “SHarq mumtoz adabiyotida Iskandar siyosiga qaysi shoirlar murojaat qilishgan?”, 6. “Nega Iskandar Rumiyni Iskandar Zulqarnayn deb aatashadi?” Yuqorida aytganimizdek, mazkur savollarning javoblarini darslikdan topish mumkin. Oʻquvchi birinchi savolni oʻqiydi, adib haqida berilgan matnda javob tayyor, ikkinchi savolga keyingi satr boshini oʻqishi kifoya va hokazo. Yana oʻsha holat: bosh qotirishning hojati yoʻq, bolalar tushunsa, tushunmasa aytib bera olishadi. Bunday holatni darslikdagi boshqa adabiy ertaklar yuzasidan tuzilgan savol-topshiriqlarda ham koʻrish mumkin.

Bunday “yaxshigina tuzilgan savol va topshiriqlar “tayyor osh pishirib berish”ga harakat natijasida oʻquvchilarni fikr boqimandalariga aylantiruvchi vositaga aylanib qolgan”<sup>17</sup>.

Boshqa vositalarga qaraganda darslik eng qiziq yoki tushunishi qiyin boʻlgan oʻrinlarga qaytish va ularni keyinchalik mukammal oʻylab koʻrish imkonini berishi bilan ustunlikka ega. Oʻquvchining doimiy hamrohi, uyda, maktabda xohlagan vaqtda foydalanishi mumkin boʻlgan darslik oʻquvchida yaxshi xulq tarkib topishida dastlab oʻziga jalb eta oladigan, qiziqtiradigan, oʻylantiradigan, oʻtish davri yoshidagilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan boʻlishi lozimdir.

Darslik mualliflari savol va topshiriqlar tuzar ekanlar, oʻquvchini zoʻr berib ishlatish uchun emas, balki uning oʻz ijodiy qiyofasini namoyon etishga sharoit yaratib berishni koʻzlashi kerak. Zero, savolga javob beruvchi, javobga olib boruvchi yoʻlni oʻzi topishi, asar yuzasidan oʻylanishi, fikr yuritishi va uni asosli ifodalab, himoya qilishi muhimdir.

Xullas, savol va topshiriqlar yordamida badiiy asar oʻzining chuqur mazmunini, goʻzal badiiyatini namoyon qiladi, oʻquvchi ongining qaysidir nuqtasiga joylashib, xislatlarining jilolanishiga yordam beradi. U asar qahramonlarini, murakkab Insonni tushunib boradi. “Agar oʻqisang-u, oʻylamasang – chalkashib ketasan ...”,

---

<sup>17</sup> Kodirov V. Mumtoz adabiyot: ŷkitish muammolari va yechimlar. – T.: Alisher Navoiy nomidagi ŷzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009, 33-bet.

savol va topshiriqlarning puxta qo'yilishi adabiy ta'limning muvaffaqiyatini belgilaydigan mezonni, o'quvchilarning badiiy asar ustida ko'p ishlashini ta'minlaydi. O'quvchilarda qahramonlarning fe'l-atvoridagi ijobiy va salbiy jihatlarni tahlil etish orqali ularni ma'naviy kamolotga yo'naltiruvchi tarbiyaviy maqsadni amalga oshirish imkonini beradi.

### **2.3. “Uch og‘a-ini botirlar” ertagini o‘rganish**

Amaldagi 5-sinf “Adabiyot” darsligida “Uch og‘a-ini botirlar” ertagi o‘rganish uchun tavsiya etilgan.<sup>18</sup> Kechagina boshlang‘ich sinfni tugatgan va hali ertaklar dunyosidan uzulib ulgurmagani xayolparast bolakaylarning o‘rta bosqich adabiy ta’limida ham ertaklar bilan tanishishi ularning shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. “Uch og‘a-ini botirlar” ertagini o‘qishga kirishishdan oldin o‘qituvchi keyingi dars “Ertak darsi” bo‘lishini, unda o‘quvchilar o‘zlari ertak to‘qishlarini, darslikdagi ertakni o‘qishi, uning matni ustida ishlash jarayonida bo‘lajak ertak darsiga material yig‘ib borish lozimligi aytiladi. Bu o‘quvchilarni hayajonlantirishi tabiiy. Bundan tashqari, o‘qituvchining ogohlantirishi ularni ertak yaratish haqida o‘ylab yurishday faoliyat atrofiga birlashtiradi.

O‘qituvchi asar matnini ohangga solib o‘qib beradi. Ertakni bolalarga o‘qitirish metodik jihatidan to‘g‘ri tadbir emas. Hatto o‘qituvchining o‘zi ham ertakni ifodali o‘qishga alohida tayyorgarlik ko‘rishi shart. Chunki ertak o‘qilish yo‘sini bilan tinglovchilarni rom etib olsa, dars muvaffaqiyatli chiqishi aniq.

Darslikda ertak matni qisqartirib berilgan. O‘qituvchi “Uch og‘a-ini botirlar”ning to‘la nusxasini topib, o‘quvchilarning bu ertak haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lishlariga erishgani ma‘qul. Ertakni o‘rganish uchun dasturda uch soat ajratilgan bo‘lib, asarni o‘qish uchun 28-30 daqiqa sarflanadi. Qolgan vaqt matn mazmuni yuzasidan o‘qituvchi tomonidan taqdim etilgan savol-topshiriqlar ko‘magida asarni tahlil qilishga bag‘ishlanadi.

---

<sup>18</sup>S. Axmedov va boshk. Adabiyot. Umumiy y‘rta tahlil maktablarining 5-sinfi uchun darslik. T.: SHark, 2007. 64-bet.

Amaldagi darslikda ertakning mazmuni yuzasidan berilgan didaktik ashyolar o'quvchilarni matn mohiyatiga chuqur kirib borishlariga imkon bermaydi. SHu bois o'qituvchi ertak mazmuni yuzasidan quyidagicha savol-topshiriqlar tuzgani foydali bo'ladi: "Ertakning "Uch og'a-ini botirlar" deb atalishining sabablari haqida fikringizni ayting" topshirig'i yuzasidan o'quvchilar hech qiynalмай fikr bildiradilar. Lekin "Otaning o'g'illariga aytgan: "*Birinchidan, sog'lom vujudli qilib o'stirdim – quvvatli bo'ldingiz. Ikkinchidan, yarog' bilan tanishtirdim – yarog' ishlatishga usta bo'ldingiz. Uchinchidan, qo'rqitmay o'stirdim – botir bo'ldingiz*",- tarzidagi so'zlariga e'tibor qiling. Bu so'zlarning yigitlar tabiatiga xos xususiyatlarni belgilashdagi o'rni haqida mulohaza yuriting" tarzidagi ikkinchi topshiriq o'rta tashlanganda o'quvchilar o'ylanishi, o'zlarini bir oz zo'riqtirishi kerak bo'ladi. Bu topshiriq ularni yigitlar tabiatiga xos bo'lgan baquvvatlik, yarog' ishlatishga ustalik, botirlik, topqirlik, zukkolik, sinchkovlik kabi sifatlar ularning qaysi ishlarida ko'ringanini matndan qidirishga yo'naltiradi. O'quvchilar botirlarning sher, ajdar va o'g'rilar bilan to'qnashuvdagi qahramonliklari tasvirlangan lavhalarga murojaat qiladilar. Topshiriqni bajarish mobaynida ular botirlarning shaxsi bilan bog'liq jihatlarni kashf qiladilar.

O'qituvchi muntazam ravishda o'quvchilardan fikrlarini matnga tayangan holda bayon etishni, aytganlarini asardan misollar keltirib asoslashni talab qilishi bolalarni ijodiy fikrlashga yo'naltiradi. Tarbiyalanuvchilar otaning: "sog'lom vujudli qilib o'stirdim – quvvatli bo'ldingiz" degan gapi zamirida qanday haqiqat borligi, sog'lom, baquvvat bo'lib o'sishning garovi nimada ekanligi, bunda otaning vazifasi nimalardan iboratligi haqida ham o'ylab ko'rsinlar. Buning uchun o'qituvchi shu tasvirni savolga aylantirib, ota tarbiyasidagi: "Qo'rqitmay o'stirdim – botir bo'ldingiz" tarzidagi jihatda nimalar nazarda tutilganiga, "qo'rqitmay o'stirish"ning ma'nosini chaqishga o'quvchilar e'tiborini qaratgani ma'qul. O'quvchilar bu ibora zamiridagi ma'noni qanday tushunadilar? Bular – ertak zamiriga singdirilgan milliy tarbiyaning asoslari. O'qituvchi buni e'tbirdan chetda qoldirishi mumkin emas. Qadimda yarog' ishlata bilish, ot minish ham yigit kishining fazilatlaridan hisoblangan.

Ikkinchi darsda asar tahlilini davom ettirib, o'quvchilar otaning: *“To'g'ri bo'ling – bexavotir bo'lasiz. Maqtanchoq bo'lmang – xijolatga qolmaysiz. Dangasalik qilmang – baxtsiz bo'lmaysiz”* tarzidagi nasihatiga o'z munosabatlarini bildiradilar. Otnang har bir gapini o'zlaricha tahlil qiladilar. To'g'ri, o'quvchilarning bu nasihat mazmuni borasida fikrlari sodda, o'z bilganlari doirasida bo'ladi, albatta. Fikrlar o'qituvchi yoki boshqa kattalarning qarashlariga nisbatan jo'nroq bo'lishi tabiiy. Lekin muhimi – o'quvchida fikrning, o'z qarashining shakllanib borishidir. Uning o'qituvchi tomonidan to'ldirilishi, tuzatilishi metodik jihatdan to'g'ri bo'lmaydi. Bu o'rinda o'qituvchining vazifasi fikr kishisini rag'batlantirish, yangi qo'shimcha savollar bilan uning ichidagi gaplarini chiqarib olish, bir-birlarining fikrini takrorlarsiz to'ldirishga o'rgatish, xato ketgan o'rinlarini o'zlariga topdirish, kamchiliklarini o'zlari anglab, o'zlari tuzatishlariga imkon yaratishdan iborat. O'quvchilar otaning aytganlari mohiyatiga kirishlari, to'g'rilik mahsuli bo'lgan xotirjamlikning, maqtanchoqlik tufayli hijolatga qolishning, dangasalik oqibatida baxtsiz bo'lishning nima ekani haqida tasavvurga ega bo'lishlari uchun bu tushunchalarning mazmuni haqida: *“To'g'rilik deganda nimani tushunasiz?”*, *“Hijolatga qolish degani sizningcha nimani anglatadi?”*, *“Dangasalik nimalarda ko'rinadi?”*, *“Siz baxtsizlikni qanday tushunasiz?”* kabi qo'shimcha savollar bilan o'ylab ko'rishga yo'naltiriladi. SHu tariqa tushunchalarning, ular yordamida ertakning mohiyatiga kira borib o'quvchilar o'zlarining tarbiyalanishi jarayonida bevosita ishtirok etadilar. Ya'ni o'qituvchisining ko'magi, yo'naltirishlari asnosida o'zlarini o'zlari tarbiyalaydilar.

Og'a-inilarning o'z sarguzashtlarini bir-birlariga ham darrov aytib bermaganliklari ularga xos yana qanday fazilatning belgisi ekanini o'quvchilar o'zlari kashf etsinlar, maqtanchoqlik yot bo'lgan botirlarning og'ir-bosiqligi, kamtarligiga munosabat bildirsinlar. Botirlarga xos bo'lgan bu fazilatlar o'quvchilarning havasini qo'zg'ashi tabiiy. Ayniqsa, bolalik paytida u yaxshilarga, kuchlilarga havas qiladi. Bu – fazilat. O'quvchilarda shunday fazilatlarni shakllantirish adabiyot darslarining vazifasidir. Buning uchun matn yuzasidan o'quvchilar e'tiborini shunday tuyg'ularni qo'zg'otadigan, ruhiyatini muvozanatdan

chiqaradigan savol-topshiriqlar berib borilsa, kifoya. Ko‘rinib turibdiki, o‘qituvchidan ortiqcha narsa talab qilinayotgani yo‘q. Qahramonlarga xos bo‘lgan ijobiy sifatlarga havas uyg‘otib, ularning fazilat ekani o‘quvchilar ko‘ngliga joylansa, ular bola ma‘naviyatida, albatta, iz qoldiradi.

“Kenja botir sarguzashtlariga e‘tibor bering. Uning o‘g‘rilarni o‘z holiga qo‘yib ketib qolmaganiga qanday qaraysiz?” savol-topshirig‘i sinfdagi har bir o‘quvchidan mustaqil mulohazani talab qiladi. Sirdan qaraganda o‘zgalarni muhokama qilish juda osonday tuyuladi. Lekin o‘sha o‘zgalar o‘rniga o‘zini qo‘yib ko‘rish, o‘zini ularning o‘rnida tasavvur qilish talab qilinganda ba‘zan “tillar boylanib qolishi” ham bor gap. O‘quvchilarni vaziyatga shunday yondashishga undash ham ularni ijodiy fikrlashga yo‘naltiradi. Javob bergan o‘quvchilarning fikri diqqat bilan eshitiladi, zarur bo‘lganda qo‘shimcha savollar bilan qarashlarga aniqlik kiritiladi.

“Kenja botirning tadbirkorligi, topqirligi, jasurligi bilan ertak boshida ota tomonidan aytilgan gaplar o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor deb o‘ylaysiz?” savoli berilganda, unga aniqlik kiritish maqsadida “Kenja botirning tadbirkorligi uning qaysi ishida ko‘rinadi?”, “Uning topqirligini qaysi hatta-harakatlarida ko‘rish mumkin?” “Kenja botir otasining o‘sha nasihatidan keyin birdaniga jasur bo‘lib qoldimi?” singari qo‘shimcha savollardan ham foydalanish mumkin. SHu tariqa o‘quvchilar e‘tibori Kenja botirning qaysi fazilati uning qaysi amalida ko‘rinishiga, jasurligini namoyish etgan ishlari tasviriga qaratiladi. Bu kabi faoliyati bilan ular adabiy qahramonlarni o‘zlari uchun qayta kashf etadilar. Bu kashfiyotlari ma‘naviyatlarining kamol topishiga xizmat qiladi.

O‘rdaga kelgan botirlarning ziyofat paytida dasturxonga qo‘yilgan go‘sh, shinni, non taxlami to‘g‘risidagi fikrlariga ham o‘quvchilarning diqqati qaratiladi. Yigitlar tabiatidagi bilgichlikning omillari haqida o‘ylab ko‘rishga undalgan o‘quvchilar mulohaza yuritib, o‘z fikrlarini o‘rtaga tashlaydilar.

“*Qizlar yo‘qotgan tillalariga gavhar qo‘shib oldilar,*”- degan iborani qanday tushundingiz?” savoli o‘quvchilarni asar matnida ilgari surilgan g‘oyalar haqida mulohaza yuritishga undaydi. O‘quvchilar “qizlar yo‘qotgan tillalar” deyilganda

nima nazarda tutilgan-u “qo‘shib olingan gavhar” deyilganda nima ko‘zlangani haqida mulohaza yuritadilar. O‘z qarashlarini asardan kelib chiqib bayon qiladilar. Bu kabi savol va topshiriqlar 5-sinf o‘quvchilariga xos bo‘lgan ko‘p o‘ylab o‘tirmay gapirib yuboraverish yoki o‘rtoqlarining fikrini takrorlash kabi odatlarini ular tabiatidan chiqarishga ko‘maklashadi. Javoblarda o‘quvchilarning o‘z xulosasi, qarashlari ifodalanadi. Berilgan savol va topshiriqlarga kimningdir aqli yetar, kimnikidir yetmas. Muhimi, sinfdagi bolalarning o‘ylashi, izlanishi.

Asar mazmuni yuzasidan taqdim etilgan: “Kenja botir hikoyasidagi to‘tiga e’tibor qiling. Va’daga vafo qilish uchun ota-onasi, aka-ukalari va yaqinlari, eng muhimi, o‘z ozodligidan kechib kelgan to‘tining olijanobligiga ko‘rsatilgan oqibatga munosabat bildiring” topshirig‘ini bajarishga tutingan o‘quvchilar to‘ti, podshoh va vazir shaxsini tahlilga tortadilar. O‘qituvchi ularning har bir xatti-harakatini alohida savolga aylantirishi lozim. SHunda o‘quvchilar ularning xatti-harakatiga munosabat bildiradilar, baholaydilar. To‘ti qaytib kelmasligi ham mumkin edi-ku! Lekin u mardlik qilib sadoqatini namoyish etdi, buning ustiga yoshartiruvchi meva ham olib keldi. O‘quvchilar bunday olijanoblikning nima uchun o‘limga mahkum etilgani, podshoh nima sababdan to‘tining emas, vazirning gapiga ishongani haqida mulohaza yuritadilar. Bolalar podshohning o‘z fikri yo‘qligi, vazir mevaning bittasini podshohga yedirib, ikkinchisini o‘zi yeganda hammasi yaxshilik bilan tugashi mumkinligini, to‘tining o‘limini istagani vazir o‘zining ham boshini yegani haqida fikrlashadilar. Bu bilan yomonlik, albatta, jazolanishini, haqiqat ma’lum vaqt egilsada, lekin sinmasligini o‘quvchilar anglab yetishlariga imkon yaratish o‘qituvchining asosiy yumushi bo‘lishi kerak.

“Ertakdagi va hikoyadagi shohlarni bir-biriga solishtiring” topshirig‘i o‘quvchilarni ikkala podshohning tabiatidagi xislatlarni aniqlashga, ertak va hikoya matniga qayta-qayta murojaat qilishga undaydi. CHunki Kenja botirning hikoyaga singdirgan maqsadini anglash muhim ahamiyat kasb etadi. SHuning uchun bu hodisa ustida ishlanayotganda o‘qituvchi qo‘shimcha savollar bilan yo‘nalish berib yuborishi ham muhim. Hikoyadagi to‘ti va podshoh timsollariga xos sifatlar: va’daga vafo va shoshqaloqlik bilan tadbir ko‘rish haqida o‘quvchilarda bolalarcha



sodda xulosalar chiqariladi. Ertakdagi va hikoyadagi shohlarni taqqoslash asnosida o‘quvchilar ularning har ikkisiga o‘ylamay ish ko‘rish, yaqinlarni ayamaslik, shafqatsizlik, qahri qattqlik kabi sifatlar xosligini aniqlaydilar.

“Og‘a-ini botirlarning saroydan ketish to‘g‘risidagi qaroriga o‘z munosabatingizni bildiring” topshirig‘i ham o‘quvchilarni o‘ylantirishi mumkin. Ularning ko‘pchiligidan kutilgan javob chiqmasligi ham oddiy hol. Lekin bu vaziyatgaga o‘quvchilarning munosabati keyingi soatda bo‘ladigan ertak darsining samarasini ta‘minlaydi. Kenja botirning nohaq jabrdan dili og‘rigani, endi aka-ukalar u yerda ortiq qololmasliklarini his etgani uchun ketishga, tabiatlariga singdirilgan tarbiyaga muvofiq yashashga intilishlarini o‘quvchilar bola ko‘ngillari bilan his qiladilar. Ular tuyganlarini so‘z bilan ifodalab berolmasliklari ham mumkin. Lekin adabiy ta‘lim uchun o‘quvchida tuyg‘u uyg‘otishning o‘zi katta yutuq.

Suhbat so‘ngida “Ertak tahlilidan so‘ng ko‘nglingizda qanday tuyg‘ular paydo bo‘ldi? Ularni sharhlashga urinib ko‘ring” topshirig‘i o‘quvchilarning asarni o‘qishdan olgan dastlabki va tahlildan keyingi taassurotlarini farqlab, tasavvurlarini tiniqlashtirib olishga ko‘maklashadi.

Uy vazifasi sifatida ertakdagi: “Kenja botir podshohga qarab bir hikoya aytdi...” jumlasidan keyingi hikoyani o‘quvchilar ertakdagi voqealar rivojiga moslashtirib yangidan yaratishlari mumkin. Bu – o‘quvchilarning imkoniyati doirasida bajariladigan topshiriq.

“Uch og‘a-ini botirlar” ertagini o‘rganishga bag‘ishlangan uchinchi darsda o‘quvchilar tomonidan yaratilgan ertaklar eshitilib, ularning yutuq va kamchiliklari tahlilga tortiladi.

### III BOB. BMI ning amaliyotga tatbiqi

#### 3.1. Tajriba-sinov ishlari

##### Adabiy ertak darslariga zamonaviy yondashuv va noan'anaviy darslarni tashkil etish.

Bugungi kunda ta'lim sohasida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar, ta'lim mazmunini takomillashtirishga oid me'yoriy hujjatlar ta'limni hayot bilan bog'lashni, o'qitish samaradorligini oshirishni, tez taraqqiy etib borayotgan jamiyat uchun har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirishni talab qiladi.

Bu o'rinda adabiy ta'lim jarayoniga zamonaviy yondashuv, yangi pedagogik texnologiyalarning kirib kelishi va qo'llanilishi davr talabi bilan bevosita bog'liqdir.

Yangi pedagogik texnologiya ta'limning ma'lum maqsadga yo'naltirilgan shakli, usuli va vositalarining mahsulidir. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, aksariyat hollarda adabiyot o'qituvchisi dars jarayonida faqat o'zi ishlaydi, o'quvchilar esa kuzatuvchi, tinglovchi bo'lib qolaveradilar. Ta'limning bunday an'anaviy ko'rinishi o'quvchilarning aqliy tafakkurini o'stirmaydi, faolligini oshirmaydi, ta'lim jarayonidagi ijodiy faoliyatini so'ndiradi. Buni quyidagi jadval asosida ham mufassal o'rganish mumkin.

Taqqoslanadigan jihatlar	An'anaviy ta'lim	Zamonaviy yondoshuv asosidagi ta'lim jarayoni
pedagogik munosabatlar turi	Sub'ekt-ob'ekt	Sub'ekt-sub'ekt
pedagogik munosabatlar tamoyili	avtoritar	Insonparvarlashtirilgan va demokratiyaga asoslangan o'zaro hamkorlik
Darsning maqsadi	Bilimlarni o'zlashtirish, ko'nikma va malakalarni hosil qilish, o'quv materialini tushuntirish	SHaxsning qiziqishi, motivini rivojlantirish, aqliy, ma'naviy, axloqiy, ruhiy va jismoniy barkamolligini ta'minlash

Darsning mazmuni	Dastur talablari, darslikdagi o'quv materiallari	Bilish usullarini egallash, atrof-muhitdagi, jamiyat rivojidadagi, ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga molik o'zgarishlarni anglash, shaxsni rivojlantirishga imkon beradigan o'quv va qo'shimcha materiallar
Ta'limning hakatlantiruvchi kuchi	Buyruq, ta'kidlash, jazolash, baho va boshqalar asosida shaxsni kamsitish yoki rag'batlantirish	Bilish quvonchi, o'zidagi ijobiy o'zgarishlarni his qilish, o'ziga va o'z bilimiga ishonchning paydo bo'lishi, o'zini va boshqalarni hurmat qilish, o'zaro hamjig'atlikka asoslagan qulay ijtimoiy-psixologik muhit.
Darsda faoliyat usuli	Tushuntirish, takrorlash, mashq qilish, yodlash, namunaga muvofiq amaliy ish bajarish	O'quv topshiriqlarni hamkorlikda bajarish, muammoli suhbat, aqliy hujum, munozara, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida insonparvarlik munosabatlarining shakllanishi.
Darsni tashkil etish	Uy vazifasini so'rash, yangi bilimlarni o'rganish, umumlashtirish, takrorlash, baholash.	muammoli savollarga javob topish, avval o'zlashtirgan bilimlarni yangi va kutilmagan vaziyatlarda qo'llash, individual va guruhlarda o'quv topshiriqlarini bajarish.
O'qituvchining roli	Bilim va axborot manbai, o'quvchi taqdiriga javobgar – yakka hokim	Hamkor, do'st, maslahatchi, muammoni hal qilishda bilimlarni egallash usullarini o'rgatuvchi g'amxo'r, ustoz.

O'qituvchining vazifasi	Bilimlarni o'zlashtirishning eng oson shaklida bayon etish.	O'quv va amaliy vazifalarni hal etishda o'quvchilarning faol ishtiroki va o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish.
O'quvchining vazifasi	Axborotni qabul qilish, yodlash, axborotni qayta ishlamagan holda berilgan savollarga shu shaklda javob berish kutilgan bahoni kutish.	O'quv topshiriqlari va muammoni hal etishning individual, guruhli izlanishlarda ishtirok etish, doimo o'z bilimini rivojlantirish, iqtidorini namoyon etish
Ta'limning yakuniy natijasi	DTS va dastur talablari, bilim, ko'nikma va malakalarni shakllanishiga erishish.	O'quvchilarning aqliy, ma'naviy-axloqiy, jismoniy, ruhiy barkamolligiga erishish, bilimlarni egallash usullari, o'zlashtirgan bilimlarni yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llashga o'rgatish, o'z ustida ishlash ko'nikmasini hosil qilish.

Adabiy ta'limga zamonaviy yondashuvning asosiy maqsadi esa o'qitish tizimida o'quvchini dars jarayonining markaziga olib chiqish, o'quvchilarni o'quv materiallarini shunchaki yod olishlaridan, avtomatik tarzda takrorlashlaridan uzoqlashtirib, mustaqil va ijodiy faoliyatini rivojlantirish, darsning faol ishtirokchisiga aylantirishdir. SHundagina o'quvchilar muhim hayotiy yutuq va muammolar, o'tiladigan mavzularning amaliyotga tatbiqi bo'yicha o'z fikriga ega bo'ladi, o'z nuqtai nazarini asoslab bera oladi.

Chunki adabiy ta'lim va barkamol shaxs tarbiyasi bir-biri bilan uzviy bog'liq jarayondir. Mazkur jarayonda mantiqiy fikrlash, tasavvur qilish, bilish faoliyatini rivojlantirish kabi jihatlar muhim ahamiyatga ega. Adabiy ta'lim orqali o'quvchilarda shaxsiy dunyoqarash va e'tiqod shakllanadi. Badiiyat va fan qonuniyatlarini anglash, adabiy ta'limda belgilangan bilim ko'nikma va malakalarni egallash, faoliyat yo'nalishidagi qiyinchiliklarni yengish, yakka tartibda, juftlikda va guruhlarda ishlash kabi metodlar jarayonida o'quvchi shaxs sifatida shakllanib boradi.

Adabiy ta'limda o'qituvchi interfaol metodlardan mavzuga muvofiqini tanlay bilishi muhim hisoblanadi, tajribalar ertaklar o'rganiladigan darslarni sahnalashtirilgan holda tashkil etish kutilgan natija berishini ko'rsatmoqda. Faol ertak qahramonlarini sahnada aks ettirishga layoqatli o'quvchilar bilan o'tkazilgan alohida mashg'ulotlar orqali ertak sahnalashtiriladi.

Shu o'rinda aytish joizki, darslikka kiritilgan ba'zi adabiy ertaklar asosida mulg'ofilmlar ishlanganligi, bu holat dars jarayonida murakkabliklarni keltirib chiqarayotganligini ta'kidlab o'tgandik. Bunday muammoni hal etishda o'qituvchi ijodkorligini ishga solishi, ekranda namoyish etilmagan, faqat adabiy asarda mavjud o'rinlarni yoki o'quvchilarni fikrlashga, mulohaza yuritishga undaydigan, ularda ijobiy fazilatlarni shakllanishida katta ahamiyatga ega tasvirlarni sahnalashtirishi yaxshi samara beradi.

Sahnalashtirilgan rolli darslarni tashkil etish hamda o'tkazish ko'proq vaqt va tayyorgarlikni talab etadi. Mazkur darsga tayyorgarlik ishlari sinfning boshqa o'quvchilaridan sir tutilmog'i maqsadga muvofiqdir. Chunki tayyorgarlik (repetitsiya) mashqlarining sinf o'quvchilari ichida olib borilishi ertak o'rganishi rejalashtirilgan darsning ular uchun zerikarli va qiziqarsiz kechishiga sabab bo'lishi mumkin. O'quvchilar ko'zidan sir tutilgan sahnalashtirilgan ertak darsi talab darajasida tayyorlansa, bu dars ular uchun haqiqiy mo'jiza va faqulodda kashfiyot sanalishini tajribalar isbotlaydi. Chunki ertak voqealari bolalarning ko'z oldida jonli holda ro'y beradi. Tasavvur kuzatuv bilan uyg'unlashadi.

Sahnalashtirilgan rolli darslarni tashkil etishda o'quvchilar oldiga aniq vazifalar qo'yiladi, ularning o'quv faoliyati o'yin qoidasiga batamom bo'ysundiriladi. Umumiy holda roli o'yin darslari sahnalashtirilgan muammoni yechishga qaratilgan hayotiy vaziyatni o'quvchilar tomonidan sahnalashtirish orqali hal etiladi.

Bunday darslar ta'lim berish bilan birga, o'quvchilarning ijodiy faoliyati, ularning o'zaro nutq madaniyatini rivojlantiradi, mantiqiy fikrlash hamda bilimlardan xulosa chiqarishga o'rgatadi.

Sahnalashtirilgan darslarni tashkil etishda o'qituvchi sahna ishtirokchilariga mavzuni va mavzu bo'yicha tuzilgan topshiriqlarni taklif etadi. Ishtirokchilar o'z

rollarini tanlab olishadi. O‘z roliga muvofiq umumiy muammoni yechishda guruh bilan maslahatlashgan holda qatnashadi.

Roli o‘yinlarda bir-birini inkor etuvchi vaziyatlar paydo bo‘lishi mumkin. Har bir ishtirokchi bu vaziyatdan chiqish uchun mantiqan to‘g‘ri yo‘lni tanlashi zarur. O‘quvchilarning bilim va mahoratlarini baholashda ularning tashkiliy faoliyati va muammoni yechishda maqsadning bajarilishidagi faoliyati hisobga olinadi.

### **Sahnalashtirilgan rolli o‘yin darsning texnologik xaritasi**

Texnologik bosqich	O‘qituvchi faoliyati	O‘quvchi faoliyati
1-bosqich tayyorgarlik	Mavzuni tanlash, rollarni bo‘lib berish, o‘quvchilarga maslahat berish	Mavzu bo‘yicha o‘z rolini tanlash, zarur adabiyotlarni o‘rganish
2-bosqich tashkiliy	Darsning maqsadi, umumiy vaziyat, muammo hamda uni yechishni tushuntirish	Darsning maqsadi, vaziyatni va umumiy muammolarni tushunib olish
3-bosqich ishtirokchilar munozarasi	O‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish va baholab borish	O‘z roli bo‘yicha faoliyatini konfliktli vaziyatlarni hamda mavzu bo‘yicha muammoni yechishga yo‘naltirish
4-bosqich darsni yakunlash	Darsni yakunlash: o‘quvchilar faoliyatini baholash, uyga vazifa berish	O‘quvchi xulosasini eshitish, uyga vazifa olish

Sahna qismidan keyin bir necha o'quvchilarning ertak haqidagi fikr-mulohazalari eshitiladi. Albatta, bunda uy ishi sifatida ertak mazmunini oila a'zolariga so'zlab berish topshirig'i berilishi maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, pedagogik texnologiyalar darslarda o'quvchini mustaqil fikrlashiga doir topshiriqlardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, "Agar muallifi o'rnida bo'lsam...", "Men ... ertak qahramoni bo'lib qolsam...", "Asar qahramonlari taqdirini o'zgartirishga qodir bo'lsam ", "Mening sevimli ertagim" mavzusida og'zaki va yozma matnlar tuzish, bahs va munozaralar uyushtirish kabilar shu topshiriqlar sirasidandir.

Mana shunday "Interfaol metodlardan foydalanish o'quv mashg'ulotlarini qiziqarli qiladi."<sup>1</sup> Lekin ta'lim jarayoni uchun qiziqarlilikning o'z maqsadi bo'lmaydi. U vosita, xolos. Interfaol usullar barcha ilg'or metodlar kabi kamroq kuch va resurs sarflab, kattaroq didaktik natijaga erishishga qaratiladi.

Interfaol metodlar orasida eng ko'p qo'llaniladigan va katta samara berishi mumkin bo'lgani fikriy hujum usulidir. Bu usul biror sinf yoki o'quvchilar jamoasi oldiga qo'yilgan muammoni yechishning eng samarali va demokratik yo'lidir. SHuni alohida ta'kidlash o'rinliki, hozir fikriy hujum usulidan foydalanish amaliyotida o'qituvchilar o'tgan mavzular yuzasidan o'quvchilarga turli-tuman savollar bilan hujum qilishlari keng tarqalgan. Holbuki, fikriy hujumning butun mohiyati o'quvchilarning o'zlari yangi mavzuni o'zlashtirishi yoki qo'yilgan biror didaktik muammoni hal etishi uchun fikrlarini zo'riqtirib, tinimsiz "hujum" qilish va shunday qizg'in va qiziq faoliyat natijasida o'quv topshirig'ini bajarishlaridadir. Bu usulning diqqatga loyiq jihati shundaki, unda kichik guruhlardagi o'quvchilar – o'zaro birgalikda ishlashga, yaxshi yoki yomon o'qishidan qat'i nazar har bir bolaning fikrini eshitishga o'rganishadi. Guruh a'zolariga bir xil baho qo'yilishi esa bolalarda jamoatchilik ruhini shakllantiradi.

Fikriy hujumda o'qituvchi boshqaruvchi emas, balki yordam beruvchi sifatida ish ko'radi. U o'quvchilar faoliyatini muammoga yo'naltirib turadi, ularning asosiy maqsaddan chalg'ib ketmasliklarini ta'minlaydi. Fikriy hujum metodini qo'llash quyidagi bosqichlardan iborat bo'lishi ko'proq samara berishi mumkin:

1. Tayyorgarlik. Fikriy hujum usulida o‘tiladigan dars boshlanganga qadar unda yechilishi kerak bo‘lgan muammo yoki bajarilishi zarur bo‘lgan topshiriqdan o‘quvchilar xabardor qilinishlari lozim. Bolalar bu muammo yoki vazifa to‘g‘risida muayyan vaqt davomida bosh qotirishlari, o‘ylab ko‘rishlari kerak. SHuningdek, sinfdagi o‘quvchilar muayyan kichik guruhlariga bo‘linib, guruhdagi har bir bola aniq vazifa bilan ta‘minlanishi zarur. Chunonchi, Kim guruhga yetakchi bo‘lishi, kimlar aytilgan fikrlarni yozib olishi, kimlar hakamlar safida bo‘lishi belgilab qo‘yilishi lozim.
2. Dalillar topish. Darsda o‘quvchilar hal etishlari lozim bo‘lgan muammo aniq va tushunarli bo‘lishi kerak. Berilayotgan topshiriq xattaxtaga yozib qo‘yilib, o‘quvchilar bilan muhokama qilinishi lozim. Muammo yuzasidan o‘quvchilarning dastlabki fikrlari eshitib ko‘rilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.
3. Dastlabki mashq. Fikriy hujum yordamida hal qilinishi zarur bo‘lgan muammoni yechishga o‘quvchilarni ruhan va aqlan tayyorlash uchun dastlabki mashq o‘tkazish foydalidir. U qo‘yilayotgan muammoga bevosita tegishli bo‘lmasligi ham mumkin. O‘quvchilarda fikriy hujum usuli qanday bo‘lishi haqida tasavvur uyg‘otish uchun ham dastlabki mashqni o‘tkazish zarurdir.
4. Fikrlarni hisobga olish. Bu bosqich yechilishi kerak bo‘lgan muammo yuzasidan o‘quvchilarning fikriy hujumi bilan boshlanadi. Istagan o‘quvchi, istagan fikrini, istagan vaqtda aytishi mumkin. Aytilgan har bir fikr kotiblar tomonidan yozib olinishi zarur. O‘quvchilar har qanday to‘g‘ri-noto‘g‘ri, yaxshi-yomon fikrlarni bildirishdan cho‘chimasliklari uchun quyidagi qoidalar xattaxtaga yozib qo‘yilib, ularga hammaning so‘zsiz amal qilishi ta‘minlanishi kerak:
  - Aytilayotgan fikrlar qandayligidan qat’i nazar tanqid qilmaslik, baholamaslik, munosabat bildirmaslik;
  - Fikriy hujumda noto‘g‘ri fikr bo‘lmaydi. Esga kelgan har qanday fikr o‘ylab o‘tirmay, aytilishi kerak. Ba’zan aynan bo‘lmag‘ur, “axmoqona”, aqlga to‘g‘ri kelmaydigan fikrlar foydali g‘oyalarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin;



- Fikrlarning miqdori muhim. O‘quvchilar imkon qadar ko‘p fikr bildirishlari kerak. Chunki ortiqcha fikrlarni qisqartirish yetmay qolgan fikrlarni ko‘paytirishdan osonroq;
  - Fikrlarni almashtirish, qo‘shish, yaxshilash lozim. Hammaning fikri yozib olinib, ular maqsadga muvofiq tarzda joylashtirilishi, tahrir qilinishi, tahlil etilishi kerak;
  - Bemalol bo‘lish, zavqlanish kerak. Fikriy hujum kechimida o‘quvchilar asabiylashmasliklari, jarayon zavqli o‘yin ruhida o‘tishi kerak. Fikriy hujum qancha qiziqarli bo‘lsa, shuncha ko‘p samara keltiradi;
5. Yechimni topish. O‘quvchilar fikriy hujumga kirishganlaridan keyin belgilangan vaqt o‘tgach, o‘qituvchi hujumni to‘xtatib, muammoni yechishga o‘tish kerakligini esga soladi. Bu vaqtda guruhlardagi kotiblar barcha fikrlarni yozib olgan, o‘quvchilar bu fikrlarning qaysilari yaroqli ekani to‘g‘risida o‘ylay boshlagan bo‘ladi. O‘quvchilar o‘zaro maslahatlashib, aytilgan fikrlarni muhokama qilib, keraksizlarini o‘chirib, yaroqli fikrlar miqdorini qisqartirib boradi. Oxirida bir necha juda muhim qarashlarga qoladi. Guruh ana shularga tayanib, ta’limiy masalaning yechilishi bo‘yicha o‘z xulosasini beradi.

Xullas, adabiy ertak darslarida turli xil noan’anaviy metodlardan foydalanish mumkin bo‘lib, ular o‘quvchilarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardosh, yetuk mutaxassis bo‘lishlariga hamda kasbiy fazilatlarini tarbiyalashda yordam beradi. Tavsiya etilayotgan metodlardan har bir o‘qituvchi ijodiy foydalangan holda o‘z dars ishlanmalarini yaratishlari mumkin.

### **3.2. Ochiq darslarning tashkil etilishi**

## Xulosa

O'zlikni tadqiq va namoyon etuvchi yorqin vositalardan biri –millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on oinai hayoti uning tili va adabiyotidir!<sup>19</sup>

Insonning borlig'ini go'zallik o'lchovlari asosida idrok etib, tom ma'nodagi odamiylik siyratini kasb etishida so'z san'atining ayricha o'rni va ahamiyati bor. Adabiyot lahzalarda kashf etilgan go'zallik sirlarini mangulikka muhrlovchi, aql va tuyg'u uyg'unlashmasi ila tafakkur va ko'ngil ufqlarini kengaytiruvchi, ajdodlarning axloqiy qarashlari, tajribalarini avlodlar hayoti, yashash tarzida davom etishi va yangilanishini ta'minlovchi, insonning o'z botinini kashf etishiga turtki berib, haqiqat manzillari tomon yetaklovchi bir mayoqdir. Adabiyot darslari ana shu jarayonni ongli tarzda muayyan maqsadga yo'naltiradi, tarbiyalanuvchilarida yuksak badiiy didni shakllantiradi. Sara asarlarni puch mag'izli kitoblardan farqlashni o'rgatadi, falsafiy qarashlarga boy asarlarni tushunish, ular asosida mushohada yuritish malakasini hosil qiladi. SHundagina badiiy adabiyot kishi hayotining ajralmas bo'lagi, kunlik hayotiy mazmuniga aylanib qoladi. Respublikamizda madaniy, adabiy merosni xalqimizga, xususan, yosh avlod ongiga singdirishga alohida e'tibor qaratayotgani ham shundan.<sup>2</sup>

Ta'lim bo'g'inlarida Adabiyot predmeti har bosqich maqsadi, mazmuni, sohasiga ko'ra turli shakl va hajmda o'qitiladi. Lekin ularning barchasi yagona maqsadga – barkamol shaxs tarbiyasiga yo'naltirilgandir. Adabiy ta'limda adabiy ertaklarni o'qitishga salmoqli o'rin ajratilmagan bo'lsa-da, umumiy o'rta ta'limning 5-6-sinflarida o'rganish ko'zda tutilgan. Lekin umumiy o'rta maktablarda ushbu asarlarni o'qish oson kechmayotgani bu borada ko'p muammolar borligi ma'lum edi. Amaliyotdagi kuchli ehtiyoj bu boradagi metodik yo'riqlarga bo'lgan talablardan kelib chiqib, adabiy ertaklarni o'rta maktablarda o'qitilishiga bag'ishlangan ushbu tadqiqotni olib bordik. Tadqiqotimiz davomida olib borilgan kuzatishlar tanishib chiqilgan nazariy pedagogik adabiyotlar, maktablarda o'tkazilgan tajriba-sinov ishlaridan olingan natijalar hamda ularni qiyosiy o'rganishga tayanib, quyidagi xulosalarga kelindi:

---

<sup>19</sup> Авлоний А. Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ. – Т.: Шарқ, 1999 йил. 23-бет.

1. 5-6-sinflarda o‘zbek va jahon adabiyotining eng sara adabiy ertaklari o‘rganilishiga qaramay, bu darslarning bugungi ahvolini qoniqarli deb bo‘lmaydi. Buning bir qator sabab va omillari bo‘lsa-da, ular ichida eng asosiysi – direktiv hujjatlar – standart, dasturlar va ular asosida yaratilgan darslik, metodik qo‘llanmalar hisoblanadi. Endilikda ular ilmiy jihatdan isbotlangan, amaliyotda o‘z tasdig‘ini topgan mezonlar asosida qayta ko‘rib chiqilishi va takomillashtirilishi lozim. Zero, ishimizning birinchi bobida ta’kidlaganimizdek, hozir amalda bo‘lgan darsliklarda ertaklarning to‘liq matni keltirilmay, mualliflarning asar to‘g‘risidagi qarashlari, xulosalarining keltirilishi yoki savol va topshiriqlar tuzishdagi umumiylik, bir xillik, faktologik xarakterdagi savollarni taqdim etish kabi holatlarning o‘ziyiq fikrimizni asoslaydi.

2. Dastur talabiga ko‘ra 5-7-sinf o‘quvchilari xilma-xil asarlarni o‘qish jarayonidagi zarur nazariy bilimlarni ham o‘zlashtirib borishlari lozim. Shu bosqichda o‘quvchilarda badiiy asarning shakl va mazmun jihatidan yaxlitligi haqidagi tasavvur hosil qilinadi. Lekin 5-sinf adabiyot darsligida janr haqidagi nazariy ma’lumotlarni berishda izchillikka e’tibor berilmaganligini ko‘rish mumkin. Ya’ni darslikda Hamid Olimjonning “Oygul bilan Baxtiyor”, Maqsud SHayxzodaning “Iskandar Zulqarnayn” ertak-dostonlari, Shukrulloning “Umr haqida ertak” nomli ertak-she’ri, X.K.Andersenning “Bulbul” adabiy ertagi, Antuan de Sent-Ekzyuperining “Kichkina shahzoda” qissa-ertagi o‘rganish uchun tavsiya etilgan bo‘lsa-da, shulardan faqat ertak-doston haqidagi nazariy ma’lumotgina berilgan, xolos. Bizningcha, mana shu nazariy ma’lumotda ertak-qisa, ertak-she’rlar haqidagi qisqa ma’lumotlarning ham bo‘lishi o‘qituvchi, ayniqsa, o‘quvchilarga katta yordam bo‘ladi. To‘g‘ri, tahlil jarayonida asar janri haqida ham ma’lumotlar berish mumkin. Ammo boshqa vositalarga qaraganda, darslik eng qiziq yoki tushunishi qiyin bo‘ladigan o‘rinlarga qaytish va ularni keyinchalik mukammal o‘ylab ko‘rish imkonini berishi bilan ustunlikka ega.

3. Adabiy ertaklarni o‘qitishdagi qoniqarsiz holat to‘g‘risida so‘z ketganda, bir nechta murakkabliklarni qayd etish mumkin. Gap shundaki, darslikka kiritilgan bir qator adabiy ertaklar syujeti asosida kinofilg‘m va mulg‘tfilmlarning ishlanganligidir. Bu holat o‘quvchini asarning kinofilg‘mini yoki mulg‘tfilmini ko‘rdim, uni o‘qishga hojat yo‘q, degan noto‘g‘ri to‘xtamga olib keladi va u janrning badiiy qimmatidan

bebahra qoladi. Bu o'rinda o'qituvchi darga zamonaviy yondashishi va o'quvchilarni mavzuga qiziqtirishi kerak bo'ladi. Ya'ni bunda sahnalashtirilgan darslar yaxshi Samara berishi mumkin. Ekranida ko'rsatilmagan, faqat asardagina aks etgan jihatlarga urg'u berishi maqsadga muvofiqdir.

4. So'nggi vaqtlarda o'quvchilarga bilim berishda turli noan'anaviy dars usullaridan samarali foydalanilmoqda. Jumladan, adabiyot fanidan bahs-munozara, suhbat, konferentsiya, nazm darslari o'tkazish yaxshi natija berishi tajribada sinab ko'rildi. Biroq hali qo'l urilmagan va sinab ko'rilmagan, uslubiy ochilmagan dars o'tish usullari bir qancha, buni o'qituvchilarning ijodkorligi va ijrochiligi hal qiladi.

5. SHuningdek, zamonaviy yondashilgan, noan'anaviy usulda o'tkazilgan adabiy ertak darslari o'quvchilarning bilimlarni yaxlit o'zlashtirishlariga yordam berishi tajribalarda isbotlandi. Bunday tarzda o'tkazilgan darslar o'quvchilar tafakkurini o'stiradi, mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatadi. Zero, barkamlo avlod tarbiyasi jamiyat madaniy-ma'rifiy taraqqiyotining, millat ma'naviy kamolotining muhim belgisidir.

6. Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, biz yuqorida bildirib o'tgan mulohazalarimiz ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida yanada mukammallashib boradi, deb o'ylaymiz. Zero, ta'limda tayyor retsept bilan ish ko'rish mushkul. Bizning mulohaza va tavsiyalarimiz o'quvchilarda o'zbek adabiyotiga mehr uyg'otish, uning kitobxonligini o'stirish, ma'naviyatini shakllantirish va ularni mustaqil ijodiy fikr egasiga aylantirishga muayyan darajada xizmat qiladi. His-tuyg'ulari go'zal, ezgu e'tiqodli insonni tarbiyalash, avvalo, badiiy adabiyotni o'rganishning betakror yo'llaridan boshlanadi. Nafis qalbning shakllanishi go'zallikni anglashdan ibtido oladi. Shu bois mazkur ishimizda o'quvchilarning adabiy ertak darslari bo'lgan adabiy tahlil ko'nikmalarini tarkib toptirish vositalari va usullariga hamda uni malakaga aylantirish yo'llarini belgilashga alohida e'tibor berildi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt taraqqiyoti va farovonligining garovi “Xalq so‘zi” // 2016 yil 8 dekabr
2. Mirziyov Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: O‘zbekiston, 2017, 102 bet.
3. O‘zbekiston Res‘ublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Toshkent. O‘zbekiston. 2018, 20 bet.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimiz. – // – Xalq so‘zi. – 2010. – 28 yanvar. – № 19.
5. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – // – Xalq so‘zi. – 2010. – 30 yanvar. – № 21.
6. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
7. Karimov I.A. Adabiyotga e’tibor – kelajakka, ma’naviyatga e’tibor. Toshkent, 2009.
5. Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. Birinchi Prezident I.A.Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so‘zlagan nutqi. 1997 yil, 29 avgust. - Toshkent, “Sharq”, 1997.
6. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq. – T.: SHarq, 1999 yil. 23-bet.
7. Abdullayeva R. Ertaklar ustida ishlash. – Til va adabiyot ta’limi. 2009 yil, 11-son.
8. Azizxo‘jayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.– Toshkent, 2003.
9. Ahmedov S., Qosimov B., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot. 5-sinf uchun darslik. – T.: “SHarq”, 2007.
10. Gusev D.E. Etika folklori. Leningrad, Nauka. 1997.
11. Zunnunov A. vab. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: O‘qituvchi, 1992. – 333 b.

12. Yoʻldoshev Q. Adabiyot oʻqitishning ilmiy-nazariy asoslari. -T.: Oʻqituvchi, 1996 – 152 b.
13. Yoʻldoshev. Q. Yoniq soʻz. – T.: Yangi asr avlodi, 2006. – 548 b.
14. Yoʻldoshev Q., Madaev O., Abdurahmonov L. Adabiyot oʻqitish metodikasi. – T.: Oʻqituvchi, 1999 yil.
15. Karimov N., Normatov U. Adabiyot. 5-sinf uchun darslik-majmua. – T.: “Oʻqituvchi”, 2000.
16. Konfutsiy hikmatlari. 5-sinf uchun darslik-majmua. – T.: Oʻqituvchi, 1999. 37-bet.
18. Matjon S. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. – T.: “Oʻqituvchi”, 1996.
19. Mirqosimova M. Adabiy suhbatlar (metodik qoʻllanma). – T.: 2000.
20. Mirqosimova M. Oʻquvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. – T.: Fan, 2006.
21. Moʻminov Gʻ. Oʻzbek adabiyoti taraqqiyotida folgʻklorning roli. – T.: “Fan”, 1985.
22. Moʻminov Gʻ. Hozirgi oʻzbek adabiyotida folgʻklorizm. – T.: “Fan”, 1987.
23. Oybek. Mukammal asarlar toʻplami. 20 tomlik.
24. Olimjon H. Saylanma. Daryo kabi uygʻoq oʻturman. – T.: “SHarq”, 2009.
25. Olimov S., Ahmedov S., Qoʻchqorov R. Adabiyot. 6-sinf uchun darslik-majmua. – T.: 2011.
26. Toʻxlijev B. Adabiyot oʻqitish metodikasi. Bakalavr yoʻnalishi uchun oʻquv qoʻllanma. – T.: Yangi asr avlodi, 2006.
27. Toʻxlijev B., Niyozmetova R., Boltaeva I. Darsliklar ustida ishlash. – T.: “Fan”, 2007.
28. Uzviylashtirilgan Davlat taʼlim standarti va oʻquv dasturi. Ona tili va Adabiyot (5-9 sinflar).– Toshkent, 2010.
29. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 5-9-sinf oʻquvchilari uchun adabiyotdan oʻquv dasturi. // – Maʼrifat., 2007. 4-7-9-oktyabr.
30. Usmonova Z. Adabiyot oʻqitishda axborot texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari. // – Til va adabiyot taʼlimi. 2005 yil, 3-son.
31. Shayxzoda M. Asarlar. 2-tom. – T.: 1971. 408-bet.
32. Shukrullo. Tanlangan asarlar. Uch tomlik. 2-tom. Sheʼrlar, dostonlar.

– T.:Sharq, 2009.

33. O‘zbek xalq ertaklari. 2-tom. – T.: 2015. 433-bet.

34. Qodirov V. Mumtoz adabiyot: o‘qitish muammolari va yechimlar. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

35. Husanboyeva Q. Tahlil-adabiyotni anglash yo‘li. – T.: Muharrir nashriyoti, 2013.